

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
“ISLOM SHUNOSLIK” KAFEDRASI**

ARAB ADABIYOTI
fanidan

MA'RUZAMATNI

TOSHKENT- 2010

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
“ISLOM SHUNOSLIK” KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ **Bultakov I.**
Ma'ruza matni O'UK majlisining
_____ 2010 yildagi
____-sonli majlisida tasdiqlangan

ARAB ADABIYOTI
fanidan

MA'RUZA MATNI

Ta'lim yo'nalishi: 5220400 Dinshunoslik

Kurs: 4

Semestr: 8

Ma'ruza: 14

Amaliy mashg'ulotlar: 14

Mustaqil ish: 40

Reyting: 100

Jami: 28

TOSHKENT- 2010

Ma'ruza matni namunaviy dastur va ishchi dastur asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar: A. ORIPOV, A.IKROMJONOV

**Ma'ruza matni kafedra majlisining “ ____ ” _____2010 yildagi ____-sonli
majlisida muhokama qilingan.**

Kafedra mudiri _____ akad. N.I.BROHIMOV

**Ma'ruza matni fakultet O'UK majlisining “ ____ ” _____ 2010 yildagi
____-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.**

Fakultet O'UK raisi

D.TADJIBAYEVA

KIRISH

E'tiboringizga havola etilayotgan ma'ruza matni mumtoz arab adabiyotga oid bo'lib, VI-XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Birinchi davr islomdan avvalgi Johiliya davri adabiyotiga oid bo'lib, u VI-VII asrlarda yashab ijod etgan o'nga yaqin shoirlar hayotiga bag'ishlangan. Dastlabki shoirlar Al-Muxalxil, ash-Shanfara ijodi bilan bir qatorda, "Mu'allafa" mualliflari Imrulqays, Antara, Zuhayr ibn Abi Sulmo, Haris ibn Hilliz, Amr ibn Kulsum, Tarafa va Labid ibn Rabialar hayoti va ijodiga to'xtalib o'tiladi.

Ilk islom davri bo'yicha ikki shoir Ka'ab ibn Zuhayr va Xassan ibn Sabit ijodi bilan tanishtiriladi.

Qur'oni Karim va axodisi Nabaviya bobida diyorimizdan yetishib chiqqan muxaddislardan Imom at Termiziy hayoti va ijodi haqida so'z boradi.

Umaviylar davri adabiyoti qismida siyosiy she'riyat vakillari al Axtal, Farazdaq va al Jarir ijodi shahar ishqi she'riyat vakillaridan Umar ibn Abu Robia ijodi hamda badaviy ishqi she'riyat namoyandalari haqida so'z boradi.

Abbosiy davri juda katta davr bo'lganligi, adabiyot juda rivojlanganligi tufayli uch bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Yangilanish davri. Uning vakillari Abu Nuvo's, Bashshor ibn Burd, Abul Atoxiya va Abdullo ibn al Muqaffa ijodi haqida so'z boradi.

2. Qadimiyatga qaytish yoki muqobil davr shoirlaridan Abu Tammom, al Buxturiy ijodi bilan bir qatorda adabiyotshunoslikka doir yozilgan asarlar va ularning mualliflari haqida ham so'z boradi. Bu davrdagi katta kichik nasriy janrlar xusida ham to'xtab o'tiladi.

3. Taraqqiyot davrida ijod etgan al Mutannabiy, faylasuf shoir Abul Ala al Ma'arri ijodi haqida so'z boradi.

Arab-istan adabiyoti (Andaluziya) VIII-XV asrlarni o'z ichiga oladi. Bu adabiyot ham uch davrga bo'linadi.

1. Taqlid davri. Bu davr vakillaridan Ibn Darroj, Ibn Abdu Rabbixiy kabi shoirlar ijodi o'rganiladi.

2. O'tish davrida Ibn Xaniy, ibn Shuxayd ijodi haqida so'z boradi.

3. Yangilanish davri. Al Mu'tamid ibn Abbad, Ibn Zaydun, Ibn Xamdis kabi shoirlar bu davrning mashhur namoyandalari sifatida o'rganiladi.

Usmonli turk davridagi adabiyotda, o'sha davrda yetishib chiqqan ensiklopedik olimlar hayoti va ijodi haqida so'z boradi.

Ma'ruzalar matni 4 kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, o'quv dasturidagi barcha mavzularni qamrab olgan.

1-Mavzu: ARABISTON YARIM OROLI

REJA:

1. Johiliya davriga umumiy xarakteristika.
2. Johiliya davri adabiyotidagi janrlar.
3. Johiliya davri shoirlari.

Tayanch soʻz va iboralar.

- | | |
|----------------------|--------------------------|
| 1. "Joxiliya" davri. | 7. Madx. |
| 2. Rovi. | 8. Tardiyot. |
| 3. Kasida. | 9. Xikmat. |
| 4. Nasib. | 10. Maliku-sh-shuaro. |
| 5. Vashf. | 11. "Qo'shiqlar kitobi". |
| 6. Faxr. | 12. "Devonu-l-Xamosa". |

Arab tilining beshigi -Vatani - bu Qizil dengiz, Hind okeani, Fors qo'ltig'i oralig'iga joylashgan Arabiston yarim orolidir. Bu yerda orolning katta qismini saxro va cho'llar egallagan.Bu yerda yil bo'yi to'lib oqadigan daryolar yo'q. Borlari ham jaziramaning zo'ridan yarim yo'lda qurib qoladi. Shuning uchun mamlakatning ko'pchilik mintaqalarida qurg'oqchilik bo'lib turadi. Yomg'ir juda kam yog'adi. U ham ba'zi rayonlariga, masalan, Yamanga yog'ib turadi.

Shamollarga kelsak, uning sharqiy mayin «as - Sabo» shamoli, shimoliy qismida esadigan arabiy shamol Urta Yer dengizidan yomg'ir olib keladi, janubiy shamol esa qishda juda sovuq,yozda juda issiqdir. Ulardan tashqari asosan markaziy saxroda esuvchi dahshatli «as-Samum» shamoli borki, u yo'lidagi barcha narsalarni uchirib,havoni esa kuydirib o'tadi.

Arabiston yarim oroli bir necha qismlarga bo'linadi. kadimiy Arab madaniyati o'chog'i bo'lgan Yaman mamlakati, savdogarlar yurti-Xadramaut, dengizda suzuvchilar vatani Oman bilan chegaradoshdir.Katta shaharlari: Nejran, Sana, Zaffar, Mag'riblardir. Yamanning shimoli-g'arbiy qismida Hijoz joylashgan bo'lib, u o'zining Makka shahri, undagi zam-zam bulog'i va Muqaddas Qora toshi bilan mashhurdir. Safo va Marva tepaliklari Mino vodiysi Arofat tog'i ham bor. Madina (Yasrib) ham Hijozda joylashgan. Qizil dengiz bo'yida Janubdan Yaman, shimoldan Xijoz bilan chegaralangan Tixama - joylashgan. Najd esa sharqdan Iroq shimolda Suriya va ʻarbdada Hijoz bilan chegaradosh. Najd janubi Yamama Janubi-Sharqi esa xurmo va durdonalar mamlakati - Baxrayn orollaridir. Yarim orolning katta qismi saxrodan iboratdir, u oq va qizil qum bilan qoplangandir.

Hayvonot va o'simlik dunyosi. Badaviy, tuya, xurmo va saxro - bular, ko'chmanchilarning hayot omillaridir.Tuyani «Saxro kemasi» va «Allohning hadyasi» deb ataydilar, chunki u badaviylarga go'sht, sut beradi, u badaviyning do'sti, usiz badaviyga hayot yo'q. Junidan o'tov yasaydilar. O'zi esa badaviyni joydan-joyga ko'chiruvchi vositadir. Xurmo saxrodagi eng yaxshi va keng

tarqalgan o'simlikdir. Uning mevasi va sut- badaviy ovqatining eng mazalisi hisoblanadi. Yana undan «nabiz» degan ichimlik tayyorlaydilar.

Arabistonda uy xayvonlaridan ot,eshak, qo'y va itlar bor. Yovvoyi hayvonlardan - bo'ri, sirtlon, oxular; Saxroda ilon, echkiemar ko'p bo'ladi.

Arab tili va arab yozuvi. Jahon madaniyati xazinasini, xususan, jahon adabiyoti O'rta asrlarda arab tilida gumanitar va tabiiy fanlar sohasida yaratilgan qaytarilmas ijod namunalari bilan boyitilgan.

Arab tili ildizlari qadim-qadimlarga borib taqaladi.Qadimgi yozuvlar eramizdan ilgari Y asrdan eramizning IV asrigacha mavjud bo'lgan.

Bu esa qadimgi uchta janubiy arab davlatlari - Miney, Sabey va Xim'yariylarning madaniyati yuqori bo'lganligidan darak beradi.

Ko'pgina manbalarda qadimgi arablarning yozishni bilganliklari haqida xabar beriladi. Labid asarida toshga o'yib yozilgan yozuvlar haqida, Xaris qasidasida esa bakr va tag'lib qabilalari o'rtasida yozma (tinchlik shartnoma)si tuzilganligi qayd etiladi.

Badaviylar- asl arab tilini tashuvchilar bo'lib, she'r yozishdek ilohiy kuchga ega bo'lganlar. Sahro ichkarisiga kirib borgan sari arab tili yana ham sayqallanib boradi. Ba'zi qabilalar tilining juda sof ekanligi qayd etilgan.

Johiliya davri arab adabiyoti va uning man'balari. Johiliya davri adabiyoti mumtoz arab adabiyotining o'chmas iz qoldirgan saxifasidir.Biroq u davrda yaratilgan asarlarning ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Filolog Abu Amr(770 yili vafot etgan)ning fikricha, arablar aytgan, ya'ni yaratgan, asarlarining juda oz qismi yetib kelgan,Chunki o'sha davr asarlari faqat yod olinar va og'izdan- og'izga va avloddan - avlodga yetkazilar edi. Quvvai xofizasi kuchli bo'lgan kishilar roviylar deb atalar edi.

Qadimgi arablarning so'z san'ati tarixi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Manbalarning shohidlik berishicha, qadimgi arablar tilida maqol, matal, masal, hikmatlar juda ko'p ishlatilgan. Ularning ko'pchiligi afsonaviy donishmand Luqmoni hakim tomonidan yaratilgan degan rivoyatlar mavjud. Qadimgi arablarning tarixiy rivoyatlari "Ayyom al arab" ("Arablarning kunlari") nomini olgan. Bu qadimiy arablarning o'tgan kunlari, o'zaro janglari, qabilalararo to'qnashuvlari, qasd olishlari, ko'p yillik urushlari haqida yozilgan hikoyalardan iborat.

Badaviy ko'chmanchi shoirlar qabiladoshlari orasida katta obro'ga ega bo'lgan,chunki ular o'z qabilasining qahramonlik an'alarini avloddan - avlodga she'riy tarzda yetkazuvchisi hisoblangan. Shoirlar o'z qabilasining shon- shuhratini tarannum etish bilan birga uning sharafini himoya qilgan va ulug'laganlar. Qabila dushmanlariga qarshi o'tkir tig'li so'zlari bilan kurashganlar. Bizgacha yetib kelgan asarlari esa quvvai xofizasi kuchli bo'lgan, minglab satrlarni yodda saqlagan roviylar og'zidan,YIII asr o'rtalaridan yozib olina boshlaydi. Biroq johiliya davri shoirlari asarlarining ko'p qismi izziz yo'qolgan.

Islomdan ilgari mashhur shoirlar -Imrul-Qays, Tarafa, Zuxayr-ibn Abi Sulmo,al- Xaris ibn Xilliz, Amr ibn Kulsum,Antara ibn Shaddod, Labid ibn Robialarning asarlari VIII- asrda roviy Xammod tomonidan maxsus to'plam qilib yig'ilgan va «al- Mu'allaqot» deb nom berilgan (lug'aviy ma'nosi-«Shodaga

terilgan durlar») VIII asr ikkinchi yarimida olim Mufaddal ad- Dabbiy ikkinchi «Mu'allaqot»ni yaratdi. Mazkur asar «al-Mufaddaliyot» deb xam ataladi. Xabib Abu Tammom tomonidani Johiliya davridan o'z davrigacha bo'lgan mashhur shoirlarning asarlari yig'ilib,maxsus to'plam yaratildi. Unga «Devonu-l-Xamosa» deb nom berildi.(Shon - shavkat, qahramonlik haqidagi she'rlarning to'plami). Abu Tammom vafotidan so'ng uning shogirdi al-Buxturiy ustozlari g'oyalarini davom ettirib ikkinchi, «Devonu- l- Xamosa»ni yaratib,uni o'sha davr vaziriga taqdim etadi.

Yuqoridagi to'plamlarning ma'lum qismi Ibn Qutayba (828-889)ning («She'r va shoirlar»)nomli - ensiklopedik majmuasiga va Abu-l- Faraj al-Isfahoniyni (897-967) «(Qo'shiqlar kitobi)»nomli majmuasiga kiritilgan.

U vaqtlarda yaratilgan qasidalar 50-100 baytdan iborat bo'lib, ketma-ket bir-biriga bog'lanib keladigan mavzularni tashkil etagan.

1.Nasib- bu qasidaning kirish lirik -rubobiy qismi bo'lib,unda shoir o'zining ichki kechinmalarini sevgi iztiroblari-yu,quvonchlari,rashq qiynoqlariyu,hijron azoblarini ta'riflaydi.

2. Vasef - bu qismda Arabiston saxrolari,uning ajoiyib qaytarilmas tabiati,jazirama issig'i,shamol-u-bo'ronlari, gohida yogadigan obi-rahmat yomg'irlari, o'simlik dunyosi-yu, xayvonotlari, badaviy arablarning tunu-kun yo'ldoshi, sodik dustiga aylangan ot va tuyalari xamda kuchib ketgan kabilalardan qolgan manzil-makonlarining vasefi ta'riflanadi. Tabiat va o'tgan voqealar vasefi juda chiroyli badiiy to'qimalar bilan o'rab beriladi.Qasidaning vasef qismi eshituvchida asosiy mavzuni kuz ungida namoyon etuvchi bir kayfiyatni vujudga keltiradi.

3.Faxr - bu badaviy shoirning o'z ma'shuqasiga yetishish uchun qanday jasoratlar ko'rsatgani, janglardagi qahramonliklari va uchkur tuyasi fazilatlarini vasef etuvchi qismidir. Ularni shoir faxr bilan madh etadi.

4. Madh - bunda shoir uz qabilasi,uning oqsoqollari, lashkarboshilarining fazilatlarini, qabiladoshlarining nasl- nasabi,shon shuhrati xakida kuylaydi.

5. Tardiyot-ov haqidagi qism.

6. Hamriyot -may haqida kuylanadi.

7. Hikmatlar.

Qasida janridan tashqari yana johiliya davri shoirlari hijo-hajviya, riso-marsiya janrlarida ham ijod qilganlar.

Johiliya davri she'riyati o'zining uzoq rivojlanish davriga ega. Mazkur barkamol she'riyatning asosi - negizini saj'-nasrdagi qofiya tashkil etadi. Qofiyali nasriy bayon qabila oqsoqollarining va'z nasihatlarida, lashkarboshilarning jangga undovchi so'zlarida, yig'i-yo'qlovlarda ishlatilgan. Qofiyaning nasriy bayonidan arab nazariyasining oddiy shakllaridan bo'lgan rajaz bahiga o'tilgan. Buesa johiliya she'ritining asosini tashkil etadi.Arab she'riyati aruz nazariyasiga asoslangan.Aruz nazariyasining o'zi esa ma'ruza VIII asrda Johiliya va ilk islom davri she'riy merosini o'qib,o'rganib,tahlil etgan buyuk arab allomasi, tilshunos, musiqashunos olim Xalil ibn Ahmad al-Azdiy al - Faroxidiy tomonidan yaratildi.

Uzun va qisqa xarflar almashinuviga asoslangan ,15 baxrni o'z ichiga olgan, maxsus qonun- qoidalariga rioya kilgan,fazilat va nuqsonlarga ega bulgan aruz ilmi

buyuk arab xalifaligi she'riyati vazniga aylanadi. Aruz vaznida yaratilgan buyuk she'riy merosning jug'rofiyasi Ispaniyadan Sharqiy Turkistongacha cho'zilgan arab aruz vazni fors,turkiy (o'zbek, uyg'ur, qozoq, turkman, ozor, qirg'iz, tatar...) va urdu she'riyatining asosiy vazniga aylandi - ularning ustuni bo'ldi.

Johiliya davri shoirlari.

Al-Muxalxil (taxminan 530 yil vafot qilgan.) U mashhur Imrul-Qaysning onasi Bakr va Tag'lib qabilalarining boshlig'i Kulaybning ukasi edi. Al-Isfaxoniyning yozishicha, uning ismi Adiy bo'lib, Muxalxil (nozik, ingichka)uning lakabidir. "Kushiklar kitobi"dagi ma'lumotga kura, shoir she'rlarini arablar birinchi bo'lib qo'shiq qilib ijro etganlar. U Basusa tuyasi tufayli bo'lgan urushda faol ishtirok etgan. U akasi Kulayb vafotiga marsiyalar yozgan .Ularda akasining jangdagi jasorati, bag'ri kengligi, badaviylarga xos qat'iyati, sabr -matonatini tasvirlanadi,shoirning qayg'u iztiroblari xitoblar orkali izhor etiladi.

Turli janrlarda ijod qilgan Muxalxilga VII asr shoiri al-Farazdaq: "al-Muxalxil shoirlarining eng birinchisi", deb ta'rif bergan ekan.

Dastlabki johiliya davri shoirlaridan yana biri **Shanfara** (asl ismi Sabit ibn Aus) . U VI asr boshlarida yashagan. U ham ba'zi sabablarga ko'ra o'z qabilasini tark etgan va sahroda vaxshiy hayvonlar bilan do'stlashib yolg'iz yashagan. Uning "Lom" qofiyasida yozilgan, "Qasidai Lomiya" asari mavjud. Bu asar "Sahro qo'shig'i", "Sahro madhiyasi" deb ataladi. Chunki unda shoir sahroviiy hayotdagi qiyinchiliklarga mardona chidab yashaganini hikoya qiladi. Shanfara o'z qabilasi udumini saqlab, uning sharafini himoya qilgan.

Imrul-Qays. Imrul-Qays 500-yillar arafasida Najd vodiysida asad qabilasi oqsoqoli oilasida dunyoga keldi, u o'smirlik chog'iga qadar qavmu-qarindoshlari, yaqinlari orasida yengil va xushchaqchaq hayot kechirdi .O'z tengdoshlari orasida o'ziga xos xislatlari, she'riy iste'dodi bilan ajralib turar edi. Uning she'r yozishlari otasiga yoqmaganligi tufayli u uglining bu faoliyatini takiklaydi. Biroq Imrul-Kays quloq solmay she'r yozishni davom ettirgach,ota o'z o'g'lini qabiladan haydab yuboradi.Saxroda Tayy va Bakr qabilasidan haydalganlar bilan birga hayot kechiradi va she'r yozishni davom ettiradi.

Otasining o'ldirilganligini u Suriyaligida eshitadi.Shu kundan boshlab otasini o'ldirganlardan qasos olish maqsadida qo'shin to'plab jangga otlanadi.

Imrul-Qaysning bu niyatini eshitgan Asad qabilasi uni bu xatti-xarakatlaridan qaytarishga intiladi. Imrul - Kays guyo bunga ko'ngan bulib kurinsada,aslida o'zining qo'li ostidagi odamlari Bakr va Tag'lib qabilasi bilan dushman tarafga hujum qilish rejasini tuzadi .Biroq Bakr va Tag'lib qabilasi Asad kabilasi tarafga o'tib ketadi. Shundan so'ng Imrul-Qays o'ch olishga xar kancha harakat qilmasin,xatto otasining yo'qolgan hokimiyatini ham qo'lga kiritmaydi.

Imrul-Qays barcha o'ziga xos chizgilari mukammal bo'lgan qasidalarning muallifidir.Uning "To'htanglar, sevgilim va uning manzil - makonini eslab biroz yig'lab olaylik» misra'i bilan boshlanuvchi mashhur qasidasi urta asr she'riyatining shoh qasidasi,-deb e'tirof etiladi,xatto keyingi asrlarda yaratilgan biron bir kasidani unga qiyoslab, shu asardan-da yaxshiroqmi? Mashxurroqmi? degan savollar berilgan.

An'anaga binoan Imrul - Qays o'z qasidasini ma'shuqasi Unayza bilan uchrashgan kunni eslab boshlaydi. Uning bu asari har biri mustaqil bo'lgan bir necha qismdan iboratdir.

Imrul-Qays she'riyatida muhabbat va tabiat vasfi bir- biri bilan uyg'unlashib ketgan. Saxroviy badaviy shoir arab saxrosi tabiati go'zalliklari va injikliklarini juda boy, go'zal va qaytarilmas tashbehlari orqali vasf etgan.

Zuxayr ibn Abi Sulmo (tax.530-627) °atafan qabilasidan bo'lib, Najdda tavallud topdi. Bu qabilada Zuxayr otasining tog'asi Bashama ismli bir donishmand bo'lib, u oyoq-qo'li ishlamay yotib qolgan edi. Zuxayr doimo undan o'z yordamini ayamas o'z navbatida ul donishmanddan she'r yozish san'ati sirlarini o'rganar, hayot hikmatlaridan boxabar bo'lar, har bir narsani u bilan maslaxatlashar edi. Keyinchalik Zuxayr Mudar qabilasi she'riyat maktabining raxbari Aus ibn Xajardan ta'lim oldi. Shoir o'z ustozlaridan rostguylik, odillik, olijanoblik, o'z qabilasining sharafiga himoya qilishdek eng yaxshi xislatlarni o'rgandi. U o'z mu'allaqasini ikki qabilaning o'zaro nizolariga barham berishga o'z xissalarini qo'shgan va bu yo'lda o'z boyluklarini ayamagan zubyar qabilasidan chiqqan olijanob ikki badaviy: al Xaris ibn Aufa va Xarima ibn Sinanaga bag'ishlaydi.

Keyinchalik uning asarlari devonga to'planib, al- A'lam ash-Shantamari tomonidan sharxlangan. Birinchi marta 1870 yili shoirning devoni Vil'yam Alvert tomonidan nashr qilingan. U 1888 yili Leydonda, 1905 yili Misrda sharhi bilan chop etilgan.

Antara ibn Shaddad al-Absiy (525-615). U Najdda abs qabilasi ulug'larining biri oilasida tavallud topgan. Biroq onasi asira bo'lganligi tufayli u qul hisoblanar edi. U o'z qabilasining jangchisi, himoyachisi darajasiga ko'tarilib, ko'p janglarda jasorat ko'rsatib qullikdan ozod bo'ladi.

Uning 1500 baytli she'rlar to'plami mavjud. Uning she'rlarida amakivachchasi go'zal Ablaga bo'lgan sof va samimiy muhabbati tarannum etiladi. O'z muhabbatiga ijobiy javob ololmagan Antara xijron azobida chekkan iztiroblarini otashin misralarda ifoda etadi. Uning toptalgan g'ururi, nafsoniyatining qadrsizlanganligi tuyg'usi ajoyib qasidalarining, tengsiz ijod namunalarining yaratilishiga turtki bo'ldiki, ular islomgacha bo'lgan mashhur qasidalariga aylandi. Mazkur she'rlar to'plami birinchi marta 1864 yili Bayrutda nashr qilingan. Uning muallaqasi 79 baytdan iborat bo'lib, komil baxrida yozilgan, bu asarga az-Zuzaniy, at-Tabriziy va al-Anbarylar sharhlar yozishgan. U bir necha bor nashr qilinib, lotin va fransuz tillariga tarjima qilingan.

Al-Xaris ibn Xilliz-(VI- asr oxirida vafot etgan). Bakr qabilasidan chiqqan mashhur kishilardan biri bo'lib, uning ijodi haqida bizgacha juda kam ma'lumotlar saqlangan. Biroq ma'lum manbalarga ko'ra u o'tkir zexni, notiqligi bilan Xira hukmdori Amr ibn Hind nazariga tushgan. Uning sulxparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan she'riy murojaatnomasi azaliy qondosh bo'lgan Bakr va Tag'lib qabilalari o'rtasidagi nizolarni bartaraf bo'lishiga sabab bo'ladi. Al-Xarisning mu'allaqalarida tarixiy voqealar, qabilasining qaxramonlik an'analari tarannum etilgan. Shu jihatdan uning asarlari tarixiy ahamiyat kasb etadi. Mu'allaqa 85 baytdan iborat bo'lib, xafif baxrida yozilgan.

Shoirning asarlari az-Zuzaniy sharhi bilan birga 1820 yili Oksfordda, 1827 yili Bonnda nashr qilinib lotin va fransuz tillariga tarjima qilingan.

Amr ibn Kulsum (VI asr oxirida vafot etgan). Tag'lib qabilasidan bo'lib, u shu qabila boshlig'i o'g'li va shoir al-Muxalxilning nabirasi. Onasi Laylo Muxalxil qizi, qabila boshlig'i Kulaybning jiyani. Xira hukmdori Amr ibn Xind Amr ibn Kulsumni onasi bilan o'z uyiga ziyofatga taklif etadi. Amr ibn Xind onasi bilan kelishib xizmatkorini ketkazib yuboradi va ovqat vaqtida Amr ibn Kulsumning onasiga xizmatkorlardek munosabatda bo'ladi. Bunday hurmatsizlikdan ranjigan tag'lib ayoli o'z o'g'lini himoya qilishga chaqiradi. O'g'li jaxl ustida Xira hukmdorining boshini chopib tashlaydi va katta boylikni qo'lga kiritib qochib ketadi. Bakr va tag'lib qabilalari o'rtasidagi urush ko'p yillar davom etadi. Amr ibn Qulsum bu urushda ham shoir, xam jangchi bo'lib faol qatnashgan. U o'z she'rlarida urushdagi voqealar, unda qabiladoshlarining ko'rsatgan jasoratlari haqida yozgan. Mu'allaqa yuztaga yaqin baytni o'z ichiga olgan bo'lib vofir baxrida yozilgan. Uning asarlari «al-Mu'allaqot» to'plamiga kiritilgan bo'lib, unga az-Zuzaniy va at-Tabriziylar sharx yozishgan. Shoirning mu'allaqasi 1819 yilda nashr qilingan va lotin,nemis,ingliz, fransuz tillariga tarjima kilingan.

Nazorat uchun savollar:

1. Joxiliya davri qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
2. Joxiliya davri shoirlarining asarlari qaysi manba'lar orqali bizgacha yetib kelgan?

Mustaqil ish uchun savollar:

3. Dastlabki badaviy shoirlar kimlar?
4. "Mu'allaqa" mualliflari kimlar?
5. Qasida va uning tarkibiy qismlari haqida gapiring.
6. Xijo va Riso janrlarining xususiyatlari haqida gapiring.

Adabiyotlar.

1. Xanna al-Faxuriy "Istoriya arabskoy literaturi". M., II L.Yu, 1959 g.,1 t.
2. Filishtinskiy I.M. Arabskaya literatura v Srednie veka. M.,1977 g.
3. Obrazsi doislamskoy poezii arabov. T,1992, Izd. TashGIV.

2-Mavzu: ILK ISLOM DAVRI ADABIYOTI.

REJA:

1. Ilk islom davriga umumiy xarakteristika.
2. Ilk Islom davri adabiyoti dagi asosiy janrlar.
3. Ilk Islom davri shoirlari.

Tayanch so'z va iboralar.

1. Tavba-tazarru’.
2. Da’vat.
3. Qasidai “Burda”.
4. Hijo.
5. Riso.
6. Hijrat.
7. Hijriy sana.
8. Iymon-e’tiqod sobitligi

Ilk Islom davriga umumiy xarakteristika. VII asr boshlariga kelib Arabistondagi ko‘chmanchi qabilalar xayoti juda chuqur ijtimoiy va iqtisodiy tanazullga yuz tutdi. Saxroviy xayotda suvning yetishmasligi badaviylarning o‘troq hayot kechirishga o‘tishga, dexqonchilik bilan shug‘ullanishXga yo‘l qo‘ymasdi. Bir vaqtlar umum qabilaniki bo‘lgan suv havzalari , qir-adirlar endilikda sekin-asta qabila zodogonlari qo‘liga o‘tib borayotgan edi. Shu bois kambag‘al badaviylar borgan sari qashshoqlashib, burungi qabila birligi yo‘qola borayotgan, ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan edi. Badaviyninng shaxsiy erki qabila ahllari tomonidan himoyalanmay qoldi. Qabilalalararo munosabatlar ham susaya bordi. Katta shaharlardan Makka ahllari savdogarchilik bilan shug‘allanib, ularning karvonlari Yaman, Suriya, Iroq, Misr mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatgan edilar. Mazkur barcha ishlarga Quraysh qabilasi oqsoqollari bosh bo‘lib, kundan-kunga ularning boyliklari ko‘payib, yerlari kengayib, qul va chorvalari ortib borar edi. Qurayshlarning iqtisodiy qudrati Makka atrofiga ham tarqalgan edi. Makkadagi muqaddas Ka’ba atrofiga shimoli-g‘arbdagi arab qabilalar ham o‘z sanamlarini o‘rnatgan edilar. Shu bois Makka shahri nafaqat iqtisodiy, balki Arabistonning diniy markaziga ham aylangan edi. Mana shunday sharoitda yangi islom dining paydo bo‘lishi urug‘ va qabilalararo sinfiy munosabatlarining keskinlashuviga chek qo‘ydi. Avvalo, Islom dinini arab badaviylari, keyin shaharliklari qabul qildilar. So‘ngra Islom dini arablarning fatx yurishlari oqibatida Osiyo va Afrikaning Ispaniyadan Xitoygacha bo‘lgan chegara oralig‘iga keng yoyildi.

Muhammad arablardan chiqqan payg‘ambar bo‘lib, 570-yillarda Makkada tavallud topgan. Uning otasi savdogarlardan bo‘lib, erta vafot etgan. Shu bois yosh Muxammad amakisi Abu Tolibning qo‘lida tarbiya topadi. Mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni, qabilalarning tosh sanamlarga sig‘inishlarini ko‘rgan Muhammadning ko‘nglida bu narsalarga qarshi bir tug‘yon uyg‘onadi. Katta bo‘lgach, arablarni yagona Allohga siginib, Islom dinini qabul qilishga da’vat etadi. Arablar ikkiga bo‘linib, birlari Muhammad (SAV) tarafdorlari, ikkinchilari uning muxoliflariga aylanadilar va tish-tirnoqlari bilan Rasululloh tutgan yo‘lga qarshi chiqadilar. 622 yilga kelib, Makkada Muhammad (SAV) ga qarshi bo‘lgan muxoliflarning dushmanlik munosabatlari kuchayib ketdi. Shundan so‘ng Payg‘ambarimiz o‘z saxobai kiromlari, yaqinlari bilan Yasrib (Madinaga) shaxriga hijrat qildilar. Muhammad (SAV)ning Makkadan Madinaga ko‘chgan yillari Musulmon xijriy sanasining boshlang‘ich yili bo‘lib hisoblanadi. Islom uchun bo‘lgan janglarda muxoliflar ustidan aksariyat xollarda Muhammad (SAV) g‘alaba qozondilar. Bir necha yildan so‘ng ko‘pgina arab qabilalarini yagona Islom bayrog‘i ostiga birlashtirishga muvaffaq bo‘lindi. Arablar o‘zaro qabilaviy janglarga chek qo‘yib, Rasululloh va uning xalifalari hokimiyati ostida birlashdilar. Keyinchalik qator qo‘shni davlatlarga qarshi Islom bayrog‘i ostida fatx yurishlarini

boshladilar. Shunday qilib arablarning Islom dini tufayli birlashuvi ularning birligini mustaxkamlashga, arab davlati asosini yaratishga yordam berdi.

Ilk islom shoirlari. Quraysh qabilasi shoir va olimlari Rasulullohga qarshi chiqdilar. Ulardan kuchlilari -Abdulloh ibn Zabaariy, Amr ibn al-Os, Abu Sufyon ibn al-Xaraslardir, Rasululloh tarafdorlari javob she'rlari bilan qatnashishga izn so'raydilar. Shunda Rasululloh «Olloh va uning elchisini qo'lda qurol bilan yoki o'z so'zi bilan himoya qilishiga nima xalaqit beradi?» dedilar. Ul zotni himoya qilib Xassan ibn Sobit, Kaab ibn Malik va Abdulloh ibn Ravaxalar qatnashdilar.

Ka'ab ibn-Zuxayr (?-662\42): Ka'ab ibn Zuxayr ibn Sulmo o'atafan qabilasida tug'ildi. U juda erta she'r yoza boshladi, biroq otasi uni o'z she'riy qobiliyatini barvaqt ketkazib qo'ymasini deb she'r yozishni taqiqlaydi. Rasululloh islom yo'liga da'vat kilayotganlarida Ka'ab mashhur shoir edi. Akasi Bujayr islomni qabul qilganda, u ota bobolar diniga qaytishni talab kilib, Muhammad va islomni hajv qilib asarlar ham yozdi. Keyinchalik akasi maslahatiga ko'nib Madinaga bordi va Rasulullohdan uzr so'rab qasida o'qib berdi. Payg'ambarimiz uni kechirib o'z chakmonlarini xadya qildilar va u qasida «Burda»nomini oldi. Qasida uch qismdan iborat bo'lib, ular kuyidagilar: 1) qadimgi shoirlarning an'analarini davom ettirilib yozilgan *rubobiy nasib* qismi; 2) o'z maxbubasi visoliga oshiqayotgan shoirni olib ketayotgan tuyasining vasfi; 3) Payg'ambarimizdan avf etishlarini so'rab, Rasulullohni va ularning saxobalarini madh etib yozilgan qismi. Qasidaning nasib qismida shoirning ichki kechinmalari tasviri o'quvchini diqqatini tortadi. Ma'shuqaning ohuga tashbeh etilishi, may vasfi ajoyib badiiy chizgilar orqali tarannum etiladi. Vasf qismida tasvirlangan tabiat va uning go'zalliklarini ko'ra bilish xususiyati shoirning Ausiy maktabi mahoratini yaxshi o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Madh qismida Payg'ambarimizning dono rahbarliklari, aql-zakovati, obro'lari, saxobalarining shijoat va matonatlari otashin misralarda ifoda etiladi.

Bu qasida Ibn Durayd (933), at-Tabriziy (1109), Ibn Xishom (1360) va al-Bajuriy (1860)lar tomonidan sharx etilgan. Shuningdek, mazkur qasida sharq va g'arb davlatlarida bir necha bor nashr qilingan, 1748 yili Leydonda to'liq sharx bilan nashr etildi, keyinchalik 1871 yili Leypsigda, 1890 yili Berlinda, 1904 yili Parij va Konstantinopolda xamda 1931 yili Bayrutda nashr qilingan. Qasida lotin, fransuz, ingliz, nemis, italyan tillariga tarjima qilingan.

Hassan ibn Sabit (?-674\54). Hassan ibn Sabit Xazraj qabilasiga mansub bo'lib, Madinada tavallud topdi. U o'z qabilasi sharafini himoya qilib asarlar yozgan. 60 yoshida Islom dinini qabul qilgan shoir Rasululloh va Islomni himoya qilib qasidalar bitdi hamda uning dushmanlariga qarata yozilgan o'tkir hajviy she'rlari bilan shuhrat qozondi.

Adabiyotda siyosiy va diniy nuqtai nazardan aloxida e'tibor bilan qaralgan Hassan ibn Sabit ijodiga ba'zi islom dushmanlari va xalk romanlari mualliflari tomonidan begona she'rlar kiritilgan. Shuni qayd etish kerakki shoir ko'proq hijo (hajviya) janrida ijod etgan. Qolgan barcha she'rlari Rasululloh va ularning saxobalari madhiga bag'ishlangan.

Shoir ijodiy merosi to'rt qismga bo'linadi. Bu qismlar: "Hassan-o'z qabilasi shoiri", "Hassan-saroy shoiri", "Hassan-bazmu jamshid kuychisi", "Hassan-islom shoiri", deb nomlangan.

Hassan yangi din himoyasiga o'tlanarkan, eski tartibga jon-jaxdi bilan tirmashgan Quraysh qabilasi ahllarini hajv qilishni maqsad qilib oladi. Biroq Payg'ambarimizning mazkur qabilaga mansubligi uni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Rivoyat qilishlaricha, shoir Quraysh qabilasini hajv qilmoqchi bo'lganida Rasululloh so'rabdilar: "Meni nima qilasan?" (o'zlarini ham shu qabilaga mansubliklariga ishora etganlar) shunda shoir: "Sizni xamirdan qil sug'urgandek ajratib olaman", - deb javob beribdi. Shundan so'ng Rasululloh Quraysh qabilasidan kimlarni hajv qilish kerakligini ko'rsatish uchun Abu Bakrni shoirga ustoz etib tayinladilar. Shu tufayli Hassan o'z asarlarida Payg'ambarimizga va ularning yo'llariga ashaddiy qarshilik ko'rsatgan Abu Jahl, Abu Laxab va Abu Sufyon ibn Xaraslarni hajv qilish bilan kifoyalanadi.

Uning asarlari XIX asr o'rtalarida bir necha bor Hindistonda, Tunis, Misrda nashr etildi. 1910 yili Londonda Gib yubileyi munosabati bilan chop etilgan.

Yuqoridagilardan tashqari bu davrda Abu Zuayb al-Xuzaliy (?-646\26), an-Nobig'a al-Ja'diy (?-699\80)lar ham ijod qilganlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ilk Islom davri shoirlari qaysi janrlarda ijod qilganlar?
2. "Qasidai "Burda"ning muallifi kim?
3. Xassan ibn Sobit uz asarlarda kanday goyalarni kuylagan?

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Shoir al-Xansa hayoti va ijodi.

Adabiyotlar.

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi 1 tom, 150-153, 176-186-betlar.
2. Filishtinskiy I.M. Istoriya arabskoy literaturi (Y-X veka) M., 1985.

3-Mavzu: QUR'ONI KARIM VA AHODISI NABAVIYA.

REJA:

1. Kur'oni Karim haqida.
2. Tafsir va mufasssirlar.
3. Hadis va muhaddislar.

Tayanch so'z va iboralar.

1. Qur'oni Karim.

2. Sura.

3. Oyat.
4. Tafsir.
5. Mufasssir

6. Ahodisi Nabaviya.
7. Muhaddislar.
8. Islom. Iymon. E'tiqod.

Islom dini arab adabiyoti oldida yangi ufqlarni ochib, unga yangi tushunchalarni kiritdi. U arab tilini yangi ma'nodash so'zlar bilan boyitdi. Qur'oni Karim arab tili va adabiyotiga juda katta ta'sir kursatdi.

Qur'oni Karim - musulmonlarning muqaddas kitobi hisoblanib, uni yana al-Furqon yoki al-Mushaf ham deb ataydilar. U 114 suradan iborat bo'lib, shulardan 92 tasi Makkai mukarramada va 22 tasi Madinai munavvarada nozil bo'lgan. Mazkur suralar oyatlarga bo'linadi.

Qur'oni Karimni xotirasida saqlagan Rasulullohning sahobalari va shogirdlari og'zidan yozib olinganlari 632 yili Xalifa Abu Bakr Siddiq (raziallohu anhu) zamonlarida to'plangan. Qur'oni Karim 645 yili xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) zamonlarida to'la-to'kis xolda qo'lyozma xoliga keltirilgan. Qur'oni Karim fasohat va balog'at bobidagi eng oliy namuna hisoblanib, arab tilining sof saqlanishiga va arab davlatlariga yoyilishiga sabab bo'ldi. Qur'oni Karim arab tili grammatik shakllarining takomillashishi va lug'at tarkibining yanada boyishiga katta hissa qo'shdi. Qur'oni Karim musulmon dini ilmlari fiqh (musulmon xuquqshunosligi), tafsir va arab tili sarfi-nahvi, maoniy va bayon ilmlarining asosi hisoblanadi.

Hadis va muhaddislar. Islom dinida Qur'oni Karim eng mo'tabar va har sohada murojaat manbai bo'ladigan kitob bo'lsa, undan keyin Rasulullohning hadislarini turadi. Zotan ul zoti bobarokot aytganlar: "Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni Karim bilan o'zimning sunnatim- yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar shu ikkalasini qattiq ushlab ularga amal qilsangiz to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysiz".

Shu andisha nuqtai nazardan qarasak paygambarimizning hayotlik chog'larida aytgan so'zlari, qilmishlari, ko'rsatma-yo'llanmalari, pand-nasihati o'gitlari - bular hammasi hadis yo sunnat bo'lavergan va shunday deb atalgan. Chunki har bir musulmon kundalik xayotida duch keladigan turli-tuman xolatlarda, ayniqsa, qiyin bir vaziyat yuz berganda mana shu sunnatlarga rioya va amal qilishni o'zining burchi va ixtiyori deb biladi.

Islomning dastlabki yillarida hadislarini saqlab qolish ularni muttasil yodlab borish bilan amalga oshirilardi. Ko'pchilik saxobalar yetarli darajada savodli bo'lishlariga qaramay hadislarini o'z vaqtida yozib bormaganlar. Bunga Payg'ambarning hadislarini yozib borishlikni man etganliklari asosiy sabab bo'lgan. O'z xotiralari quvvatiga ishongan saxobalar ularni yodlab boraverganlar va shu tarzda avloddan-avlodga yetkazish mumkinligiga ishonganlar. U davrlarda kishilarning hurmat ehtirom qilinishi, obro-e'tibor qozonishi uning yodlangan va ma'nosini o'zlashtirgan Qur'on oyatlari va hadislarining soni bilan belgilanardi. Vaqt o'tishi bilan Qur'oni Karim va ahodisi Nabaviyani yod biladigan kimsalar birin-ketin dunyodan ko'z yumib, ularning soni borgan sari kamayib borayotgani ma'lum bo'la boshlaydi. Shu boisdan hadislarini xatga tushirish va to'plash orqali

kelajak avlodlar uchun ma'naviy meros qoldirish xarakatiga asos solindi. Bu ishga ayniqsa hijratning ikkinchi asridan boshlab jiddiy kirishildi.

Uchinchi asrda esa, Imom al-Buxoriy (810-869), Imom Muslim (819-874)lar o'zlarining Islom olamiga mashhur bo'lgan "al-Jome'-as- saxix" kitoblarini yozdilar. Shu tariqa hadislar birinchi marta bob va bo'limlarga bo'lindi. Bularga ergashib Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Abu Dovud Sulaymon as-Sijistoniyy, Imom Ahmad an-Naso'iy, Imom ibn Mojja al-Qazvinii kabi yirik zotlar yetishib chiqdilar va ular ham "as-Saxix"yo "as-Sunan" nomi bilan hadislar to'plamini yozdilar.

Islom tarixiga oid kitoblarda hadislar asosan Muhammad Payg'ambar vafotidan keyin yozila boshlangani va Muhammad Alayhis-salomga payg'ambarlik uning qirq yoshida nasib bo'lganligi qayd qilinadi. Shunga ko'ra Qur'oni Karim oyatlari Rasululloh umrlarining oxirigacha, ya'ni 23 yil mobaynida turli munosabatlar bilan nozil bo'lib turgan bo'ladi. Saxobalar bu oyatlarni maxsus saxifalarga yozib borganlar.

Ilk muxaddislardan biri *Abu Said al-Xudriy* Payg'ambardan hadislarini yozib borishga ruxsat so'raganda, rad javobini olganligi tarix manbalaridan ma'lum. Ilk yozilgan xadislar katoriga Muxammad Payg'ambarning xorijiy o'lkalarga (Vizantiya imperatoriga, Eron shoxiga, Misr va Hindiston hukmdorlariga) yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab vasiqa va hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan hadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat, odamlarni ma'lum vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imon va tavsiya maktublari, Payg'ambarga kelgan xatlarga javoblar aks etgan.

Hijriy III asr (IX-melodiy) boshlariga kelib, hadis haqida ko'plab kitoblar yozila boshladi. Xadis ilmining bu "Oltin asri"da al -Buxoriy, Muslim, an-Naso'iy, Abu Dovud, At-Termiziy, Ibn Mojja kabi imomlar "al-Jome'" va "as-Sunan"nomli kitoblarini yozganlar. Bu asarlar "Kutubi sitta" ("Olti kitob") nomi bilan mashxurdir.

Imom al- Buxoriy. Imom Abu Abulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'ira al-Buxoriy 194/810 yili Buxoroda tug'ilgan. U o'n yoshidayoq o'z diyoridagi muxaddislardan xadis eshitib, uni yodlashga kirishgan va 11 yoshida ba'zi ustozlarining xatolarini topa boshlagan. U 16 yoshida muxaddislardan Abdulloh ibn Muborak va Vaqi' ibn al-Jarroxlarning hadis kitoblarini to'la yod bilgan. So'ngra onasi va akasi Ahmad bilan Haj safariga boradi va Haj marosimlari tugagach, onasi va akasidan izn so'rab, hadislarini to'plash maqsadida Makkada qoladi. 18 yoshida saxoba va tobeinlarning rivoyat qilgan xadislarini to'plab "Tarix" nomli kitob yozadi. Imom al-Buxoriy yangi hadis axtarib bir necha o'lkalarda- Kufa, Basra , Xijoz, Misr, Suriya mamlakatlarida bo'lgan va ularning ba'zilarida uzoqroq istiqomat qilgan. U yerlarda ko'plab muxaddislar bilan tanishadi va ulardan eshitgan hadislarini o'z kitobi "Al -Jome' as-Sahih"ga kiritadi. Bu asar Islom olamida eng mashhur bo'lgan va buyuk ulamolar tarafidan Qur'ondan keyingi eng to'g'ri kitob deb tan olingan va "Kutubi sitta"ning eng mashhuri hisoblangan. Imom al-Buxoriyning bu asari mashhur muxaddislar

ko'rigidan utgan, kitobda keltirilgan rivoyatlar borasida birortasi xam ixtilofga uchramagan va allomalarning barchalari bir ovozdan ma'qul topganlar.

Imom Muxammad al-Buxoriy hayri-saxovtli kishi bo'lgan. U otasi Shayx Ismoiyldan qolgan meros mollarining katta qismini faqiru miskinlar va tolibi ilmlarning hojatlari ravo qilish uchun sarf etgan. Imom al-Buxoriy 20 yoshidan boshlab kitob ta'lif eta boshlaydi. Ul zotning "Al-Jome' as-Sahih" ("Ishonchli to'plam")idan tashqari yigirmaga yaqin kitobi bo'lgan. Ammo ularning bir qismigina qo'lyozma shaklida mavjud bo'lib, qolganlarining nomlarigina ma'lum xolos. Al-Buxoriy hadis rivoyat qilgan shaxslarning tarjimai xolini to'plab, bu sohada qiymati zo'r bo'lmish va ko'pchilik hadischilar murojaat qiladigan asar "at-Tarix al-Akbar" ("Eng katta tarix")ini yozadi. Keyinchalik muallif bu kitobini qisqartirib "At-Tarix as-Sig'ar" ("Kichik tarix") nomi bilan atagan va bu asar 1325\1907 yilda Hindistonda 251 sahifa bo'lib bosilgan. Kitob so'ngiga al-Buxoriyning "Kitob az-Zuafo" ("Zaiflar kitobi")ni ham ilova qilingan.

Imom al-Buxoriy hijriyning 256 yili 30 ramazon (31 avgust 869)ida vafot etadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u kishi ozg'indan kelgan, o'rta bo'yli, tabiatan o'ta muloyim, taqvodor, juvonmard sifat bir zot bo'lganlar.

Imom at-Termiziy va uning "as-Sunan" asari. Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savro as-Sulamiy al-Bug'iy at-Termiziy 209\824 yili Termiz shahridan taxminan ellik chaqirimlar masofada bo'lgan Bug' (hozirgi Sherobod) qishlog'ida tavallud topgan bo'lsa-da, unib o'sishi, ilmlarni egallashi va istiqomati Termizda bo'lgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, o'sha davrlarda Termiz ilm-fan taraqqiy etgan markazlardan bo'lganligi ma'lumdirl.

At-Termiziy yoshlik chog'idanoq hadis mutoalaasiga kirishib, o'qigan va eshitgan barcha fikr mulohazalarini maxsus qog'ozga batartib yozib borar edi. Ustozi Imom al-Buxoriy at-Termiziyning hadislarini sinchiklab o'rganishdagi nodir qobiliyatini, quvvai xofizasi, ilm va taqvodagi ustunligini tan olgan va unga shoxidlik bergan. Mashhur muxaddislarning ko'plari Imom at-Termiziyning hadis ilmining takomillashtirish va uni kelgusi avlodlarga sof xolda yetkazishdagi xizmatlarini yuqori baholaganlar. Xadis olimlaridan Abdurahmon ibn Muxammad al-Idrisiyning ta'biricha, at-Termiziy "Xadis bobida iqtido kilinadigan imomlardan biridir".

At-Termiziy fiqh-islom konunshunosligi boblariga moslab tasnif qilgan "as-Sunan" nomli kitobi tegishli mavzularni o'z ichiga atroflicha qamrab olganligi sababli "al-Jome' as-Sahih"deb ham shuhrat topgan. Buasar 1867-68 yili Mirtoxda tosh bosmada,292\1876-77 yili ikki jild bo'lib Kohirada nashr etilgan.Bu asarda takror hadislar uchramasligi, o'tmish muxaddislar asarlarida zikr kilinmagan "Manoqib" va "Tafsiri Qur'on"boblarini kengaytirib berilganligi mazkur kitobning qimmatini yanada oshiradi. Kitobdagi hadislar uch guruhga bo'linadi:cahah, hasan, zaif. Har bir hadisni zikr qilgach, qaysi guruhga mansub ekanligi aytib ketiladi.

Birinchi va ikkinchi o'rinlarni al-Buxoriy va Muslimning "al-Jome' as-Sahih"kitoblari olsa, at-Termiziyning "Sunan"i mazkurlardan keyingi kitob hisoblanadi.

Imom at-Termiziy o'zining shoh asarini yozib tugatgach, uni zamonasining mashhur ulamolarga ko'rsatadi va ularining roziligini oladi.

Umrining oxirgi yillariga kelib at-Termiziyning ko'zlari ojiz bo'lib qoladi va 279/892 yili ona shahri Termizda vafot etadi. Imom at-Termiziyning "Sunan" asaridan tashqari yana quyidagi kitoblar yozgani ma'lum: 1. "Kitob at-tarix" ("Tarix kitobi"); 2. "Kitob al-ilal" ("Nuqsonlar kitobi"); 3. "Kitob ash-Shamoil an - Nabaviya" ("Payg'ambarning axloq va odoblariga oid kitob"); 4. "Kitob az zuhd" ("Zohidlik haqida kitob") 5. "Kitob al-asmo va al-kunya" ("Roviylarining ism va laqablari haqida kitob") va boshqalar. At-Termiziy asarlariga ko'plab sharh va hoshiyalar bitilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Qur'oni Karim necha yil mobaynida Lavhi Maxfuzdan Rasulullohga Hazrati Jabroil orqali tushirildi?
2. Qur'oni Karimda nechta sura bor?
3. Mufasssirlar kimlar?

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Tafsir va mufasssirlar.
2. Diyoringizdan chiqqan buyuk muxaddislar xakida nimalar bilasiz?

Adabiyotlar.

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi. 1 tom 165-171-betlar.
3. Xadis ilmining peshvolari. "NUR", T-1992.
4. Sh. Boboxonov. Velikie muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami. T-1998.

4-Mavzu: UMMAVIYLAR DAVRI ADABIYOTI

REJA:

- 1 Umaviylar davriga umumiy xarakteristika.
2. Umaviylar davri adabiyotidagi asosiy janrlar.
- 3 Umaviylar davri shoirlari.

Tayanch so'zlar.

- | | |
|--------------|----------------------|
| 1.Madhiya. | 3.Naqoid. |
| 2. Xamriyot. | 4.Siyosiy she'riyat. |

Xalifalik taxti umaviylar qo'liga o'tgach, siyosiy markaz Hijozdan Suriyaga o'tdi. Umaviylar hokimiyati 100 yilcha hukmronlik qildi. (661-750 yillar).

Bu davr she'riyati badaviylar va shahar she'riyatiga bo'linadi. Badaviy she'riyati -ona tabiati vasfi hamda pok sevgini kuylaydi, uning mualliflari quydagilar: Jalil ibn Ma'mar - sevgilisi Busoynaga bo'lgan muhabbatini „Laylo al-

Axyaliya esa oshig'i Tauba ibn Xumayra haqida, Qays(Majnun) al-Amiriy esa maxbubasi Layli o'rtasidagi sof sevgini va Qays ibn Zarix esa Lubnaga bo'lgan sof sevgisini tarannum etadilar.

Shahar she'riyatining mashhur mualliflari-Umar ibn Abu Rabi'a, al-Axvas, al-Valid ibn Yazidlardir.

Sivosiy she'riyat. Siyosiy she'riyat - bu siyosiy maqsadlarga xizmat qiluvchi she'riy asarlardir. Bu she'riy janr ilk Islom davrida rivoj topdi. Xalifa Usmon ibn Affon o'limidan so'ng, mamlakatda o'zaro urushlar boshlanib ketdi. Umaviylar qattiqqo'llik bilan hokimiyatni o'z qo'llariga olgach, bu she'riyat rivojlanib, qabilaviy fanatizm kuchaydi, siyosiy guruhlar soni ko'paydi. Umaviylar shoirlariga Abu-l-Abbos al-Aasha, Aasha Ra bi'a, an-Nabig'a ash-Shaybaniy, Adiy ibn ar-Rikaalar kiradi. Al-Axtal (640-710\20-92), Siyosiy she'riyat vakillaridan Abu malik o'iyos ibn o'auz ibn as-Salt al-Axtal yoki Zu-s-Salib tag'lib qabilasi rabi'a urug'idandir.

Al-Axtal 640 \20 yil Xirada tug'ilgan. Yoshligida onasidan yetim qolgan, o'gay ona qo'lida tarbiya topdi. O'zining birinchi she'rlarini bemehr o'gay ona qo'lida tarbiya topdi. O'zining birinchi she'rlarini bema'r o'gay onasining, shuningdek tag'lib -shoir Ka'ab ibn Juayl ustidan kulib hajv qilib she'r yoza boshlagan.

Muaviya ibn Yazid davrida (683 yilgacha) shoirning Umaviylar bilan aloqasi yanada mustahkamlanadi. U hurmat va e'tibor qozonib poytaxt-Damashqda yashadi. Bu davrda shoir madh, hijo, faxr, vaf, riso, g'azal va hamriyot janrlarida ijod qildi.

Al-Axtalning madhi-umaviylar hokimiyatini maqtash ularni g'alabasi Allohning irodasi bilan bo'lganligini qayd etish, xalifalik taxtiga qonuniy o'tirganlarini aniq dalillarga asoslanib ishontirishni maqsad qilgan.

Al-Axtal she'riyatidagi faxr ham siyosiy xarakterga ega. U o'z qabilasining Umaviylar sulolasiga sodiq ekanligini, xalifalik uchun qilgan xizmatlarni, qabilasidan chiqqan qahramonlar, ulug' insonlarni, bir vaqtlar qabilasi erishgan g'alabalarni faxr bilan kuylaydi.

Al-Axtal ko'proq yovvoyi hayvonlarni vaf qilgan, sharobni kuylovchi ko'p she'rlari mavjud.

Al-Axtal Iroqda yashaydigan al-Jarir va al-Farazdaq degan shoirlar ustidan kulib hajviy she'rlar bitgan.

Uning she'riy to'plami 1891-1905 yillarda Bayrut, 1878 yilda Leydanda nashr qilingan. Shoir asarlarida Umaviylar davri saroy hayoti o'z aksini topgan.

Al-Farazdaq (641-732\20-114). Abu Firas Xammom ibn o'olib ibn Saasa (al-Farazdaq) Tammom qabilasi zodagon oilasida. Basrada 641\20 yili tavallud topgan. U badaviylar udumi ostida tarbiyalandi, al-Farazdaq tili achchiq, xarakteri yomon bo'lgani uchun Umaviylar uni saroyga yaqinlashtirmadilar. Al-Farazdaq Madina, Makka, Yaman, Baxrayn, Falastin, Damashq, ar-Rasafda bo'lib, u yerlarda hajv, madh janrida asarlar yaratdi. Ko'pgina umaviy amirlarni maqtab madhiyalar yozdi. Unga uncha e'tibor qilmaganlarni qattiq hajv ostiga oldi. U asosan, madhiya, riso,

faxr, hajv, vasf,g'azal janrlarida ijod qildi. U 50 yil mobaynida al-Jarir bilan siyosiy - she'riy jang qilgan shoirlardandir. Shunday ekan al-Farazdaqning hayoti siyosiy va adabiy kurashda o'tgan .shuning uchun uning ijodidagi she'rlari siyosiy va adabiy kurash xarakterga ega. U o'zining she'riy talantini meros deb hisoblab, shunday degan:

Mening qasidalarimni menga bu dunyodan o'tgan uch an-Nobig'a, shuningdek, al-Muxabbal, Imrul-Qays va al-Xutayyalar sovg'a qilishgan.

Shoir asarlari 1870-1890 yillarda Parij va Myunxenda va bir necha bor Misr va Livanda nashr qilingan.

Al-Farazdaq asarlari tarixiy ahamiyatga ega, chunki ular o'sha davr shart-sharoiti, Umaviylar hokimiyati vaqtidagi arablar hayoti va an'analari, shoirning o'zi va muxoliflari hayoti haqida xabar beradi.

Al-Jarir (653-733\33-114). Abu Xazra Jarir ibn Atiya Huzayfa tamim qabilasidan bo'lib, 653 yili Yamamada tavallud topgan. Uning yoshligi qiyinchilikda o'tdi. Juda erta she'r yoza boshlagan. O'z qabilasiga bo'lgan sadoqat va muhabbat,uning dushmanlariga bo'lgan nafrat shoir she'rlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Jarir Abd al- Malik al- Marvan saroyida shoir bo'lishni xohlab qasida yozib shoirlar musobaqasida qatnashadi.

Ko'pchilik shoirlarni yutib chiqadi, biroq Al-Axtal va al-Farazdaq'larga tan beradi. Jarir devoni 1935 yilda Muxammad Ismoil as-Saviy tomonidan Misrda nashr qilingan.

Shoir o'z madhida umaviylarni maqtagan. Marsiyani rafiqasi va o'g'li Savadga atab yozgan. Hamda davlat kishilaridan al-Valid va uning o'g'li Abdul-Aziz bag'ishladi. Jarir hajviy she'rlarida dushmanlari ustidan kula turib, o'zining she'riy talanti, Islomga bo'lgan sadoqatini madh etgan.

Kichik hajmdagi nasriy asarlar. Kichik hajmdagi nasriy asarlar ilk Islom va Umaviylar davrida rivoj topdi. Ular uchga bo'linadi. hitobot, tavqiot va rasoil.

Umaviylar notiq'lari orasida mashhurlari:Ziyod ibn Abixi va al-Xajaj ibn Yusuf,shialik al-Muxtar as-Saqafiy,xorijiy-Katari ibn al-Fuja'alardir.Bayram va majlislarda so'zlovchilardan Tamim qabilasining boshlig'i al-Axxaf ibn Qaysdir. Islomni targ'ib qiluvchi notiq'lardan mashhurlari-Madinalik -Ali ibn Abu Tolib va Tamim ad- Doriy:Iroqlik-al-Xasan al-Basriy, Voil ibn Abo va Fadl ibn Isolar Suriyalik-°aylan va al-Avzoiirlardir.

Tavqiot - bu xalifa va amrlarning norozilik va avf etish mavzulari talqin qilingan qisqa xulosalardir.Bu janr Islom davrida tug'ilib,umaviylar davrida rivoj topadi.

Rasoil - bu ham qisqa,lo'nda nasriy asar.Undan hikmatlar, falsafiy fikrlar, tarixiy dalillar, shariat ahkam'lari haqidagi mulohazalar joy olgan.

Mashhur xatoblardan biri Ali ibn Abu Tolib 600 yili Makkada tavallud topgan, ul zot yoshliklaridan Rasulullohga yo'ldosh bo'ldilar.Fath yurishlarida, Islom uchun bo'lgan janglarda faol qatnashdilar.Xazrat Ali o'z jasoratlari va

hozirjavobliklari bilan boshqalardan ajralib turardi. 656 yili Abu Bakr Siddiq hazrati Umar,Xazrati Usmonlardan keyin uni Xalifa deb e'lon qilinadi. Poytaxt Kufaga ko'chiriladi. Umaviylar hazrati Aliga qarshi chiqib, jangda uni yengadilar. azrati Ali Kufoga qaytib kelib, yana jangga tayyorgarlik ko'radilar, biroq661\43 yili Abd-ar-Rahmon Muljam degan kishi Kufa masjidida xazrati Ali namoz o'qib turgan vaqtlarida zaharlangan qilich bilan o'ldiradi, ul zotning hikimatli so'zlari, va'z nasihatlari, risolalari hitobotlarini X asrda yashab ijod etgan shoir va olim Sharif ar- Rodiy ko'plab «Naxju-l-balog'a»nomi bilan asar tuzadi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Umaviylar davrida yetishib chiqqan badaviy shoirlar haqida.
2. Siyosiy she'riyat vakillari kimlar?
- 3.Kichik hajmdagi nasriy asarlar.

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Shahar ishqiy she'riyati.
2. Badaviy ishqiy she'riyati.

Adabiyotlar.

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi. 1-tom 190-230-betlar.
2. Filshtinskiy I.M. Istoriya arabskoy literaturi v srednie veka.

5-Maxzu: ABBOSIYLAR DAVRI ADABIYOTI.

(750-1258 yillar ,III-XIII asrlar)

REJA:

1. Yangilanish davriga umumiy xarakteristika.
2. Mazkur davr adabiyotidagi janrlar.
3. Yangilanish davri shoir va adiblari.

Tayanch so'z va iboralar.

- | | |
|--------------|-------------------------|
| 1. Xamriyot. | 7. Tavba. |
| 2. Zuhdiyot. | 8. Risola. |
| 3. Tarassul. | 9. Pahlaviy tili. |
| 5. Odoynoma. | 10. Zardushtiylik dini. |
| 6. Xitobot. | |

Umaviylar hokimiyati inqirozga yuz tutgandan so'ng xalifalik Abbosiylar sulolasiga o'tdi. Uning asoschisi Abu-l Abbos as-Saffox bo'lib, u Umaviylar sulolasi vakillarining barchasini qatil qildirdi va poytaxtni Damashqdan Iroqdagi al-Anbar shahriga ko'chirdi. Undan keyin xalifa bo'lgan uning ukasi Abu Ja'far al-Mansur(754-776) poytaxtni Bag'dodga ko'chirdi. Abossiylar davlatining rivojlanishiga forslar katta ta'sir ko'rsatdilar. Davlat tuzilishi,uning devonlaridagi

ish yuritish va boshqa ko'pgina yumushlar forslar qo'l ostida bo'ldi. Bu davrida ilm - fan, madaniyat rivoj topdi. Abbosiylar madaniyati rivojiga quydagilar ta'sir ko'rsatdi.

1. Asl arab madaniyati. Uning asosida Qur'oni karim va u bilan bog'liq bo'lgan diniy ilmlar, arab tili nahvi - sarfi o'rin olgan.

2. Qadimgi yunon madaniyati. Bu madaniyat Sharqqa Iskandar Zulqarnayn davrida kirib kelgan bo'lib, yunonlar Sharqda o'z falsafiy yo'nalishlarini tabobat, falakiyot ilmlarini tarqatgan edilar.

3. Sharq madaniyati. Bu sharqda fath qilingan turklar, fors, hind va somiy xalqlar madaniyati majmuasidan iborat.

Abbosiylar davri adabiyoti uch davrga bo'linadi.

1. Yangilanish davri (VIII asr o'rtalaridan-IX asr boshigacha.)

2. Yangilanish davriga qarshi bo'lgan muqobil davr (IX asr boshlaridan -X asr birinchi choragigacha bo'lgan davr.)

3 X asrdan- XIII asrgacha bo'lgan davr arab adabiyoti, san'ati, ilm-fani madaniyati juda rivojlangan davr hisoblanadi.

Abbosiylar davrida adabiyotning bosh markazi Bog'dod bo'lib, ilm fan rivoj topgan Basra va Kufa shaharlarida fanning turli sohaları arab sarfi naxvi, uning nazariyasi, adabiyot va adabiyot nazariyasi kabilar rivojlandi. Iroq shaharlaridan tashqari mashhur fan markazlari - dinga oid ilmlar- Makka va Madinada, dinga va tilga oid ilmlar Misrning Qohira va Fustat shaharlarida, Somoniylar poytaxti - Buxoroda, Tabariston poytaxti Jurjonda, Suriyadagi hamadoniylar mamlakati markazi Halabda rivojlangan edi. Abbosiylar davrida she'riyat mavzui va janrlarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Sheriyatdagi yangi yo'nalish va yangi mavzular quydagilar: 1) Falsafiy sheriyat; 2) Sufiy sheriyat;

Bashshor ibn Burd. Yangilanish davri vakillaridan biri Bashshor ibn Burd Basrada 714yili fors qullari oilasida tavallud topdi. Mustaqillikni qo'lga kiritgach, arab tilini mukammal o'rganish maqsadida badaviylar orasida yashaydi. So'ngra o'sha vaqtda ilm - fan markazi bo'lgan Basraga qaytib, ulug' ustozlardan til, adabiyot va boshqa ilmlardan dars oladi. U 10 yoshidan she'r yoza boshlagan. Unig she'r yozishga qobiliyati va boshqa ko'pgina ilmlardan ma'lumoti bo'lsada, tarbiyasi juda sust bo'lgan. Bu esa uning o'z asarlarida aksini topgan. Shuning uchun Basralik shayx Vosil ibn Ato va uning izdoshlari shoirni 744 yil Basrani tark etishga majbur qiladilar.

Shoir Xarronga - Sulaymon ibn Xishom oldiga yo'l oladi, biroq u Bashshorni qabul qilmaydi. Shoir Iroq hokimi Yazid ibn Umar ibn Xubayra al-Fazzariy huzuriga kelib, Qays Aylan qabilasiga atab yozgan qasidasini o'qib beradi. Mazkur madhiya hokimni rom etadi. Bashshor Kufada 750 yilgacha istiqomat qiladi. Basrada uni qabul qilmaydilar. 762 yilgacha u shahardan bu shaharga yurish bilan umrini o'tkazadi. Keyinchalik u Basraga qaytadi, biroq Xalifa al- Mahdiy Bashshorni o'ldirishga farmon bergach, 784 yili u 70 ta qamchi zarbidan vafot etadi.

Sayfud - Davla kutubxonasi xodimlari Abu Bakr al-Xolidiy va Abu Usmon al-Xolidiylar Bashshorning tanlangan she'rlarining 320 baytini o'z ichiga olgan

to'plamini nashr qildirganlar. Bashshor ibn Burd hiyo, madh, g'azal va riso janrlarida ijod qilgan.

Abu Nuvos (762-823\145-198). Al - Xasan Abu Nuvos Xuziston qishloqlarining biri - Axvazda 762\145 yili tavallud topdi. U kambag'al oiladan bo'lib, ikki yoshligida Basraga ko'chib boradilar. Bola kattaroq bo'lgach, otasi uni bir kishiga o'qishga beradi. U kishi Abu Nuvosga Qur'on o'qishni o'rgatadi. Otasi vafotdan so'ng onasi uni savdogar qo'liga topshiradi.

Abu Nuvos buyuk tilshunos olimlar Abu Ubayd va Xalaf al-Axmarlardan ta'lim oldi, aytishlaricha, Xalaf al- Axmar o'z shogirdiga arab shoirlari she'rlarining katta qismini yodlatib, undan keyingina she'r yozishga ruxsat bergan.

Abu Nuvos Bog'dodga Xorun ar- Rashid vaqtida 795\179 yili kelgan. Bu yerda u Barmakiylarga yaqinroq bo'ldi. Ularni asarlarida madh etdi. Abu Nuvos Xorun ar-Rashidni madh etib qasidalar yozdi va uning e'tiborini qozondi, biroq tezda xalifa uni saroydan chetlashtirib, qamashni buyurdi, chunki shoir she'rlarida axloqiy chegaradan chiqib ketgan edi. Qamoqdan chiqqach al-Amin xalifaligi davrida saroy shoiri darajasiga ko'tarildi. Bu gal ham shoir she'rlarida ko'proq may haqida yozadi.

Shoir 50 yoshida Bag'dodda vafot etdi. Uning asarlari Bayrut va Misrda bir necha bor nashr qilindi. U asosan madh, riso, hajv, g'azal, hamriyot va tardiyot janrlarida ijod qildi.

Abu-l-Ataxiya (748-825). Abbosiylar davri dastlabki davrlarda Arab xalifaligi turli taraflaridan Bog'dodga har xil diniy ilmlar oqimi kela boshladi. Islom, yahudiy-hind nasoralarining dindorlari bu dunyo lazzatlaridan voz kechish, oxirat haqida targ'ibot ishlarni olib bora boshladilar. Abbosiylar davridagi bu oqim targ'iboti adabiyotda o'z aksini topdi. Uning vakillaridan biri *Abu-l-Ataxiyadir*. Abu Isxoq Ismoil ibn al-Kosim ibn Suvayd ibn Kiso'iy Abul-Ataxiya nomi bilan mashhurdir.

U al-Anbar shahri yaqinidagi Ayn at-Tamr qishlog'ida - o'rta hol oilada tavallud topdi. Yoshligi Kufada o'tdi, ilk ta'limni shu yerda olib, so'ngra Bag'dodda davom ettirdi. Uning erta paydo bo'lgan she'riy qobiliyati ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi. Yosh shoir Xalifa al- Mahdi zamonida Bag'dodga kelib, xalifaga atab qasidalar yozadi. Saroy shoiri sifatida Xalifa al- Mahdiydan keyingi xalifalar-Xorun ar-Rashid, al-Amin, al-Mamunlar davrida ham ijod qilib madhiyalar falsafiy, pand-nasihatli she'rlar yozadi.

Abu-l-Ataxiya yangilanish davri shoirlaridan bo'lib, u ko'proq o'ziga xos bo'lgan - **zuhd**iyot janrida asarlar yaratib, unga asos soldi. Zuhdiyot -bu o'z nafsini tiyish, tarki dunyo qilish ma'nolarini beradi. Arablar zuhdiyot janrida birinchi galda g'amgin, taqvodorlik ruhida mungli mulohazalarni aks ettiruvchi, jamiyatdagi noxaqliklarni tanqid qiluvchi she'rlarni kiritadilar.

Shoir ijodida asosiy o'rinni egallagan zuhdiyotda ko'proq diniy pand-nasihatlar, oxirathaqidagi falsafiy mulohazalar o'rin olgan. Shoirni arab she'riyatidagi falsafiy tarkidunyochilik asoschisi deb hisoblaydilar. U ko'proq she'riy yangilanish tarafdorlaridan bo'lgan.

Uning madhiya janrida yozgan asarlarida maqtashni xushomadgo'ylik darajasida oshirib yubormaydi, hajviy asarlarida qo'pollikka yo'l qo'ymagan holda ehtiyohtorona asarlar yozadi.

Abu-l-Atoxiya asarlarining katta qismi zuhdiyot janriga tegishli, qolgan qismi esa g'azal, madh, riso, hijo, vasf, hikmat janrlaridan iborat.

Shoirning zuhdiyotga oid asarlarini 1070 yili vafot etgan Imom Abu Umar Yusuf ibn Abdulloh, ibn Abd al-Barr, an-Nimriy al-Kartubiy yig'ib to'plaganlar.

Yangilanish davri nasri.

Abdulloh ibn - Muqaffa (724-759) Abu Muhammad Ruzbex ibn Dadoe - laqabi ibn al- Muqaffaanning kelib chiqishi fors bo'lib, hozirgi Feruzobod shahri o'rnidagi Jur qishlog'ida 724 yili tug'ilgan.

Ota- onasi Zardushtiy diniga mansub bo'lib, ibn al-Muqaffani ham shu ruhda tarbiyalashgan. Voyaga yetgach xalifatning ilm-maskanlaridan biri - Basra shahriga yo'l oladi, u yerda mashhur olimlar, adiblar, shoirlar, notiqlar jam bo'lgan edilar. Shuning uchun u Basradagi adabiy to'garaklarga qatnashib, ulug' ustozlar o'g'itini eshitadi, yoshligidan go'zal xulqi, ilmga tashnaligi bilan ustozlar va do'stlari ishonchini qozonadi. Shu bois bo'lsa kerak, bu yosh bilimdon yigitni amirlar va saroy a'yonlari saroy xizmatiga olishga intiladilar.

Ibn al- Muqaffa faoliyati umaviylar davrida 20 yoshlarida boshlangan edi. U Karmandagi Umar ibn Xubayra devonida risolalar tuzish bilan shug'ullanadi.

Davlat tepasiga Abbosiylar kelishi bilan u Axvaz hokimi, as-Saffoh va al-Mansurlar amakisi Iso ibn Ali devoniga ishga kiradi. U yerda islomni qabul qiladi va risolalar yozish bilan birga okim jiyanlarini ilm-fan va adabiyotdan boxabar qilish bilan ham mashg'ul bo'ladi.

Ibn al-Muqaffa to'olimiga qadar Iso ibn Ali xizmatida bo'ldi. U al-Mansurning Basradagi hokimi Sufyon ibn Muoviya tomonidan fojiali o'ldiriladi.

- Ibn al- Muqaffa - arab adabiyotining buyuk namoyondasi, oliy janob va keng fe'lli inson, katta aql, chuqur bilim egasi, so'z san'ti ustasidir.
- Ibn al-Muqaffa o'z davri xalq farzandidir. Shuning uchun umri davomida fors adabiyoti va fors davlati tarixiga oid asarlarini tarjima qilib, ularni targ'ibot qilgan. U juda o'tkir va intluvchan. Shu bois u o'z xalqi madaniy merosini tarjima yo'li orqali qaytadan tiriltirishga harakat qildi.
- U fors davlati tarixiga oid, «Xudoy - noma»-asarini yozdi. Bu asar fors-eron shohlari tarixiga oid bo'lib, Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarini yozishda manba sifatida foydalangan. Ikkinchi asari «at- Toj» -Anushirvoni odil tarjimai xoliga oiddir. U fors tilidan grek faylasufi Arastuning «Kategoriya» va «Analitika» kabi falsafiy asarlarini tarjima qildi.
- Ibn al- Muqaffa bir necha davlat siyosatiga oid risolalar, do'stona nomalar yozdi. Shular orasida muhimi «Risolatu--s-Saxoba» bo'lib, Ja'far al-Mansurga atab yozilgandir. U asosan Xalifa atrofda qilarga nasihat tarzida bayon qilingan. Unda davlat sistemasini tanqid qilib, qanday qilib davlatni kamolotga yetkazishi mumkinligini ko'rsatib bergan. Bu asarni yozishda shoir ko'p fors manbalaridan foydalangan.

- “Rasoilu-l - Xotibin” - (“Notiqlar risolasi”), “al-Adab al-Kabir” (“Katta odobnoma”) va “al-adab as-Sag’ir” (“Kichik odobnoma”). Mazkur asarlarida muallif kishi avvalo, o‘z ruhiyatini tetiklashtirishi, o‘z tafakkurini oydinlashtirishi kerak, bu ajdodlarga munosib oliyjanob rejalarni amalga oshirishga yordam beradi, deb yozadi.

Qadimgilar e’tiboridan hech narsa chetda qolmagan. Shunday ekan biz Ota - bobolarimiz tutgan yo‘ldan borishimiz darkor. Oqil kishi odamlarga har bir ishda ayniqsa, Alloh yo‘lida qilinadigan savob amallarda sobit qadam bo‘lishi kerak - deydi. Har bir aqlli kishi o‘z ayblarini bilsa, ulardan forig‘ bo‘lishga urinishlari lozim. O‘rtada o‘lim borligini bot- bot eslab, odamlarga ko‘proq yaxshilik qilishga shoshilish kerakligini uqtiradi.

Ibn al- Muqaffa asarlarining qiymati ulug‘dir, chunki muallif fors, hind va yunon tilidagi manbalarni o‘rganib o‘shalar tasirida yaratgan.

Ibn al-Muqaffaning yana bir xizmati shundaki, u «Kalila va Dimna» asarini qadimiy fors tilidan arab tiliga tarjima qildi. «Kalila va Dimna» qadimgi hind donishmandlari yaratgan hikmatli hikoyalar bo‘lib, bu hikoyalar allegorik obrazlar, ya’ni hayvonlar tilidan bayon etiladi .

«Kalila va Dimna» sharq xalqlari hikmatlari jam bo‘lgan asardir. «Uni oqil o‘qisa mantiqiy hikmatlarining mag‘zini chaqadi, johil o‘qisa ko‘nglini ochib ovunadi» -degan ekan donishmandlardan biri.

Nazorat uchun savollar:

1. “Yangilanish” davri deyishimizga asosiy sabab nima?:
2. Yangilanish davri she’riyatidagi asosiy janrlar qaysilar edi?
3. Bashshor ibn Burd va Abu Nuvos qaysi janrlarda ko‘proq ijod qildilar?

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Abu-l-Atoxiya qaysi janrga asos soldi?
2. Nasrda kimlar ijod kildilar?
3. “Kalila va Dimna” kim tomonidan va qaysi tildan tarjima qilindi?

Adabiyotlar.

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi. 1 - tom, 273-362- betlar.
2. “Kalila va Dimna” asarining muqaddimasi.

6-Mavzu: QADIMIYATGA QAYTISH - MUQOBIL DAVRI ADABIYOTI.

REJA:

1. Davrga umumiy xarakteristika.
2. Ushbu davrdagi asosiy adabiy janrlar.
3. Davrning shoir va adiblari.

Tayanch iboralar:

- | | |
|---------------|------------------------|
| 1. taraqqiyot | 4. hamosa |
| 2. tanazzul | 5. qadimiyatga qaytish |
| 3. luzumiyot | 6. siyra |

IX asr adabiyot, ijtimoiy hayot, fanda qadimiy anʼanalarga qaytish davri sifatida tarixda iz qoldirdi. Aniq fanlarni oʻrganishga intilish kuchaydi. Adabiyotda qadimiy anʼanalarga muhabbat paydo boʻldi hamda johiliya davri shoirlari merosini oʻrganishga kirishildi. Sheʼriyatning rivojlanishi bilan yangi fan- balogʻat ilmi nazariyalar paydo boʻldi.

Bu davr vakillaridan biri **Xabib Abu Tammom** (796-843), Damashq yaqinidagi Jasim qishlogʻida tavallud topdi. Uning otasi (Taddus yoki Feodosius) xristian diniga mansub boʻlib, shoir islomni qabul qilgach, Otam Aus, arablarning Tayy qabilasidan deb taʼkidlaydi. Otasi bilan Damashq shahriga kelib, toʻquvchi boʻlib ishlay boshladi. Oʻzining birinchi sheʼrlarini Damashdan, Xoms shaxriga koʻchib oʻtganda yoza boshladi. Uning ijodiga oʻsha yerlik shoir Dik al-Jinniyning taʼsiri katta boʻldi.

17 yoshida ish qidirib Misrga boradi, u yerda Masjidda suv tashuvchi boʻlib ishlay boshlaydi. Masjid ilm- maʼrifat oʻchogʻi boʻlgani tufayli u yerda har sohaning olimlari oʻz shogirdlari bilan suhbatlar, baxs munozaralar olib borar edilar. Abu Tammom esa muntazam bu suhbatlarda eshituvchi boʻlib qatnashib, oʻz bilimlarini yanada oshiradi. U Misr amiri, Suriya amiri, Bagʻdod xalifasi al-Mamun sharafiga qasidalar yozadi. Ular eʼtibor qilmagach, hajv qilib, oʻzi Mosulda yashay boshlaydi. Sheʼriy asarlar yozishni davom ettirib, sekin asta atrofdagilarning eʼtiborini qozonadi. U haqidagi xabar al-Muʼtasimga borib yetadi. Xalifa uni saroyga taklif qiladi. U saroy shoiri sifatida al-Muʼtasimni maqtab, uning janglardagi jasoratini koʻklarga koʻtarib asarlar bitadi.

Shoir juda koʻp safarlarda boʻlib koʻp doʻst yoronlar orttiradi.

Shunday safarlarning birida u «Kitab al-Xamosa»ni yaratadi. Abu Tammom asarlarini as-Suliy devon shakliga keltirgan u Qohira va Bayrutda nashr qilingan Devonda madh, riso, vasf, gʻazal, faxr, hijo, zuhdiyot janriga oid asarlar toʻplangan.

1) «Kitab al Ixtiyor min ash-shu-ara il-qaboil» («Qabilalar shoirlarining saylanma asarlari»)-bunda har xil arab qabilalari shoirlarining asarlari toʻplangan.

2) «Kitab al-ixtiyor min ashʼori shuaro» («Shoirlar sheʼrlaridan tanlangan kitob»).

3) «Kitab al-fuxul» («Ulugʻ shoirlar kitobi»)-bu kitobga Islomdan ilgari va keyingi ulugʻ shoirlarning tanlangan asarlari jamlangan.

4) «Kitab al-Xamosa» («Shon shavkat kitobi»)

5) «Muxtarot min ashʼor al-muhadisina» («Zamondosh shoirlarning tanlangan asarlari»).

6) «Ixtiyor al-mukattot» (Tanlangan asarlar.)

7) «An-Naqoid Jarir val-Axtal» («Jarir va Axtal naqoidlari»).

Bu toʻplamga ikki shoirning bir- birini hajv, tanqid qilib yozgan 20 ta asari toʻplangan va shu bilan birga 1 ta Farazadaqning asari ham kiritilgan. Yuqoridagi

asarlardan faqat «Devonul- Xamosa» va «an-naqoidlar» asarlari bizgacha yetib kelgan.

Abu Tammom asosan madx, xijo, riso, g'azal, faxr, zuhdiyot, vasf janrlarida ijod qildi.

Abu Tammom vasf janrini mustaqil janr darajasiga ko'tardi. Uning vasfi ikki qismga bo'linadi. *Tabiat vasfi*. Tabiat uni bir umr o'ziga jalb etgan, u doimo tabiatning maftunkor, jozibador go'zalligini qalban his qilgan, shu bois tabiatda ro'y beradigan xodisotlar, ular sirlarining mag'zini chaqish, uning ajoyib go'zalligini o'ziga kashf etib yashagan va asarlarida ifoda etgan.

Janglar vasfi. U ko'proq Kichik Osiyodagi Amoriya shahri uchun bo'lgan janglar vasfini ustalik bilan o'z she'rlarida ta'rif etadi.

Abu Tammomning falsafiy hikmatlari mavjud.

Abu Tammom she'riyatdagi yangi yo'nalish asoschisi. Bu yo'nalish vakillari she'riyatni sayqallab yangi cho'qqilarga ko'tarishdi, arab tilini ajoyib hikmatlar, qanotli so'zlar va nozik she'rlar bilan boyitishdi. Abu Tammomning shoir-mutafakkir Abul Ala al-Ma'arriy va dono hikmatlar muallifi al-Mutanabbiy kabi izdoshlari mavjuddir.

Al-Buxturiy (821-897). Abu Ubada al-Valid ibn Ubayd ibn Yax'yo al-Buxturiy 821 yili Xalab va Yefrat oralig'iga joylashgan Manbij qishlog'ida tug'ildi. Al-Buxturiy tug'ilib o'sgan qishloq o'zining go'zal tabiati bilan shuhrat topgan edi. Shoir ham butun umri davomida ona qishlog'iga bo'lgan sog'inch va arab tilini to'g'ri va chiroyli gapiradigan o'z Tay qabilasiga bo'lgan samimiy muhabbati bilan yashadi. Al-Buxturiy tug'ilgan davrda Abu Tammom ijodi gullab yashnagan davri edi. Birinchi marta al-Buxturiy Xoms shahrida shoirlar mushoirasida Abu Tammom ko'rigidan o'tadi va uning nazariga tushadi. Ular ustoz va shogird bo'lib qoladilar. Buxturiy ustozni vafotiga atab marsiya yozgan. U ustozni Abu Tammom to'plamiga kiritilmagan shoirlar ijodiga bag'ishlab ikkinchi «Kitob al- Xamosa» to'plamini yaratdi. Bu asar 174 bobdan iborat bo'lib, johiliya va ilk islom davrida yashab o'tgan shoirlar ijodini qamrab olgan. «Salosil az-zaxob» devoni Kohira, Bayrutda nashr bo'lgan qator madhiyalari mavjuddir. U xalifa davrida saroy shoiri bo'lib xizmat qildi. Shoirning «Badiiy tafakkurlar» kitobi yetib kelmagan. U asosan g'azal, riso, faxr, hikmat, madx, xijo vasf janrlarida ijod qilgan.

Taraqqiyot va tanazzul davri adabiyoti

Al-Johiz (775-868). Abu Usmon Amr ibn Baxr-al-Johiz 775 yili Basrada tug'ilgan. Uning vatani Basra Bag'doddan keyingi katta adabiy markazlardan edi. Johiz yoshligidan kitobga muhabbati zo'r bo'lib, har bir narsani bilishga qiziqardi. Basradagi masjid atrofi o'sha davrdagi mashhur olimlar, adiblar, tilshunoslar guruhi bilan gavjum bo'lar edi. Ular «masjidiylar» nomini olgan allomalar o'z shogirdlari bilan suhbat, bahs munozaralar o'tkazishar edi. U yerda Johiz o'ziga kerakli bo'lgan ilmlarni oldi, notiqlik san'atini o'rgandi.

Bag'dodga o'tib arab tilining sarfi naxvini al-Axfashdan, lug'atshunoslikni al-Asma'iydan, diniy ilmlarni an-Nazzom Ibrohim ibn Sayyor al-Balxiydan, tabobatni Solix ibn Junayx al-Laxmiydan o'rgandi. U juda ko'p davlat arboblari bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Johizning 170 ga yaqin asari bo'lib, ular ensiklopedik xarakterga ega. U falsafa, siyosat, iqtisod, axloq, odob, tarix, jug'rofiya, tabiiy, aniq fanlarga doir, etnografiya, adabiyotshunoslik, she'riyat, tilshunoslik, lug'atshunoslikka oid asarlar yaratdi.

- 1) «Kitob al-bayan vat-tabyin».
- 2) «Kitab al-maxosin, val-adad, val-ajoyib, val-g'aroyib»
- 3) «Kitab al-anosir al - adab»
- 4) «Kitab al- ixvan»
- 5) «Kitab al- arab val -ajam»
- 6) «Kitab al-xayavan»
- 7) «Kitab fi tabaqat al-mug'annina»
- 8) «Kitab al- kilab»
- 9) «Kitab al-asad va-z-zib»
- 10) «Risola fi-l-kimy».

Qudoma ibn Ja'far. (888-948). Uning asarlari «Naqd an- nasr»(«Nasr tanqid va «Naqd ash-she'r»)(«she'r tanqidi»).

Bulardan tashqari uning geografiyaga oid asarlari ham bor. Qudoma o'zining «Naqd ash- she'r» asarida poetik fazilatlar bilan bir qatorda poetik nuqsonlar haqida ham ma'lumotlar beradi. Ibn al-Mu'tazz ta'riflagan «Ifrat fis-sifani olib, o'rniga «Mubolag'a»degan nom beradi. Mana shu istilox davrimizgacha yetib keldi.

Ibn al-Mu'tazz (863-908). Xalifa al-Mu'tazz al-Mutavakkil oilasida Samarrada 863 yili o'g'il farzand tug'ildi. Bu Abul-Abbos Abdulloh ibn al-Mu'tazz edi. U yoshligidan Basra va Kufa ilmiy maktabining mashhur olimlaridan darslar oldi. Adabiyotni - Basra maktab tilshunos va adabiyotshunos olim al-Mubarraddan (825-898), Kufa maktabi rahnamosi Abu-l- Abbas Saalabdan(815-908), adabiyotchi va faylasuf olim Ahmad ibn Said ad- Dimashqiydan taxsil oldi, hayoti saroyda, Abu-l-faraj al-Isfaxoniy yozishicha, «gullab - yashnagan ajoyib muhitda, sodiq ayonlar qurshovida o'tdi». U o'z amakivachchasi xalifa al-Mu'tadid saroyida mashhur olimlar, ulug' adabiyotchilar orasida bo'ldi. U siyosatdan uzoq edi, biroq xalifa al-Muqtafi (902-908) o'limidan so'ng saroydagi qozi va olimlar uni xalifa deb e'lon qilishdi.

Al Muqtadir (908-932) tarafdorlari esa 29 dekabr 908 yili, bir kundan so'ng ibn al-Mu'tazzni o'ldiradilar.

Ibn al-Mu'tazzdan katta she'riy devon qolgan. U 1891 yili Misrda, 1913 yili Bayrutda nashr qilingan.

«Kitab al-adab», «Kitab tabaqat ash-shuaro» nomli asari 1942 yili Yevropada nashr qilingan. «Rasoil» («Risolar») 1949 yili Muxammad Abd Al-Mun'im al-Xafajiy tomonidan nashr qilingan. Asarlari ichida eng muhimi - bu «Kitab al-badi» («Yangilik haqidagi kitob»)dir. U 1935 yili rus arabshunosi I. Yu.Krachkovskiy tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib chop etilgan. Ibn al-Mu'tazz asosan vasf janrida ijod qilgan. U qasidalarida ko'proq mayni, ovni hamda tabiat manzaralarini, o'simlik va hayvonot dunyosini vasf etgan.

Uning 2 ta urjuzasi mavjud bo'lib, birinchisi xalifa al-Mu'tadid (892-902) hukmronligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, 420 baytdan iboratdir. U 1913 yili Misrda, 1882 yili - Leypsigda, 1886 yili nemis arabshunos Lang tomonidan nemis tiliga o'girilib, nemis sharqshunoslik jurnalida bosilib chiqqan.

O'zining «Kitab al-badi'» asarida Ibn Mu'tazz birinchi bo'lib nasr va nazmda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalariga nom berib, ularni sharq badiiyati istilohi darajasiga ko'tardi. Xar bir istiloxga Quro'ni Karimdan, Axodisi Nabaviyadan, sahobalarning hikmatli so'zlaridan va arab she'riyatidan misollar keltirgan. Ular Tashbix, Istiora, Mujonasa, Mutobaqa, al-Mazxab al-Kalomiyy, Ruju', Ittifot, E'tiroz, Tajoxul al-orif, Tadmin va boshqalar.

Abu Firas al-Xamadoniyy (932-968). U 932 yili Mosulda tavallud topdi. Uning otasi-arab, onasi esa yunonlik edi. Yoshligida otasini o'ldiradilar shuning uchun u amakivachchasi Sayfud - Davla xalif panoxi ostida yashaydi. u davrlarda Sayfud Davla xalif xizmatida bo'lib Bag'dod, Mosul, Dier rabialarda yashardi. Keyinchalik Xoms va Xalabda mustaqil amirlik tuzib, poytaxtni Xalab shahri deb e'lon qildi. U atrofiga shoirlarni, olimlarni to'plab ilm fan va madaniyat rivojiga hissa qo'shdi. u harbiy san'atga ham e'tiborni qaratdi. Abu Firas bir madxiyasi uchun Sayfu-Davla uni Manbij va Xarronga amir etib tayinlaydi. u vizantiya-liklardan Sayfu Davla hokimiyatini qo'riqlashi kerak edi. Biroq u qamalda qolib 2 marta dushmanlarga asir tushadi. Birinchisida Sayfu Davla tezda sotib oladi. Ikkinchisida kechro qamoqda yozgan asariga «Rumiyat» deb nom qo'yadi. Sayfud Davla vafotidan so'ng taxtga Saadu-Davla o'tiradi. 968 yili 4 - apreldagi jangda Abu Firse xalok bo'ladi. Uning she'rlar devoni 1973 y Bayrutda, 1900 y. 1910 y. uchunchi nashri 4-1944 yili nashr bo'lgan. Shoir g'azal, ixvoniyyat, riso, vasf, faxr, janrida ijod qildi.

Sharif ar-Rodiy (970-1016) (hijriy 359-406). Sharif ar-Rodiy nomi bilan mashhur bo'lgan Muxammad ibn al-Husaynning nasabi Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladi. U Bag'dadda tug'ulib o'sdi. u Bag'dod olimlari fozillaridan ko'pgina ilmlar adabiyot, odob - axloqdan dars oldi. Shariat ilmini ulug' faqih Shayx Ab Abdulloh Muxammad ibn an-Nu'mondan, arab tilini Shayx Abu-l-Fatx Usmon ibn Jinniydan o'rgandi. Natijada u islom huquqshunosligi xossatan faroiz ilmi - ya'ni meros bo'lish ilmi, adabiyot va ilmlarning chuqur bilimdoni blib yetishdi.

Biroq u yashagan davr keskin g'ala- g'ovurli blib, Bag'dodda o'zgarishlar yuz berayotgan edi. Otasini Fors qala'laridan biriga qamab, mol mulkini musodara qiladilar. Yosh shoir ko'ngli ancha aziyat chekadi, otasiga bir necha asarlar bag'ishlab yozadi. U yashagan vaqtda Abbosiylar uch vakili; al - Muti va al-Tayi va al - Qodir hukmronlik qildilar. Bulardan at-Tayi davrida u ancha asarlar yaratdi. U o'z asarlarini shaxsiy boylik ortirish uchun emas, balki Eron va Iroq o'rtasidagi ziddiyatni siyosiy yo'l bilan yumshatishga o'z hissasini qo'shish uchun yozar edi. Shoir Xijoz va Iroq, Eron va Iroq, Suriya va Iroq o'rtasidagi muxim siyosiy muammolarni hal qilishdagi vositachilik vazifachini o'tadi. Shoir 1016 yil 16 iyulda vafot etdi va Bag'dod tashqarisidagi qabristonga qo'yildi. Uning qator asarlari bo'lib, ularning ko'plari bizgacha yetib kelmagan.

Asarlari quydagilar;

1. Kitab majozoti-l-osori an-nabaviya. Bu asar birinchi Bag'dodda, keyin Kohirada professor Maxmud Mustafo rahbarligida chop etildi. («Nabiy asaridagi majoz kitobi»).

2. Kitab haqiq at-tavil fi mutashobiha-t-tanzil («Qur'onning noaniq qiyin oyatlarini to'g'ri talqin qilish»). Bu asar Najafda nashr etilgan.

3. «Kitab talxis al-Bayon an- majozot al-Qur'on» («Qur'ondagi majoz haqida lo'nda bayon kitobi»)

4. Kitab al-Xasoris («Imtiyozlar haqidagi kitob»).

5. «Kitab axbor Kudoti Bag'dod»- «Bag'dod qozilari haqidagi ma'lumotlar kitobi».

6. «Nahj al- balog'a»- «Balog'at san'ati bo'yicha ko'rsatma». Uning she'riy devoniga Abu Hakim al-Xayriy boshchiligidagi adabiyotchilar tartib berib, 1889 \1307 yili Bayrutda nashr qilgan.

Uni muqaddas qadamjolar-Makka va Madinada ilxomlanib yozgan she'rlari «Xijoziyot»nomini olgan. Unda 40 qa yaqin qasida mavjuddir. Shialarga bag'ishlab asarlari «Shiot»nomini olgan. Shoirning marsiyalari mavjud. Ular yaqinlariga, do'stlariga va Karbaloda o'ldirilgan Xusayn ibn Aliga bag'ishlab yozilgandir. Faxriyalari asosan ikkiga bo'linadi:

1. Nasl-nasabi ulug' bo'lgan oilasi, ajdodlari ularning axloq- odob borasidagi oliyjanob fazilatlariga bag'ishlangan.

2. O'z o'zini faxr bilan sharaflashi ham ota-bobolarining ulug' zotlardan bo'lganligiga borib taqaladi. Shoir ular bilan mag'rurlanib, ularning xayri - saxovati, mehr -oqibatini faxr bilan kuylaydi.

Shoir madhiyalar-o'z otasiga 40 qa yaqin qasida yozgan, xaliflariga at-Tayga, al-Qodirga, Buvayxiylardan Adud ad-Davla, Baxa ad-Davla va ba'zi qarindoshlariga yozgan.

O'z qasidalarida qadimiy an'nalarga murojaat etadi.

Shoir vafqida ko'proq tabiat manzaralari, saxroning o'simlik, xayvonot dunyosi: arslonlari, burgut, ilonlari aks etgan. Shu bilan birga xojilar karvoni, tabiat hodisotlari vafqiga ham o'rin bergan.

Ibn al-Farid (1181-1234). Ibn al-Farid Abu Xafs Umar ibn Ali as-Saadiy Qohirada tug'ildi. U o'zining xudojo'y taqvodor ota-onalari bag'rida katta bo'ldi.

U fiqxi Shofeiylar bilan shug'ullandi, xadis ilmini Ibn Asokirdan oldi. Keyinchalik so'fiylar bilan yaqinlashib, o'zini yolg'izlikka, faqat alloh yo'lga xizmat qilishga bag'ishladi. Uavval Mukattam tog'i yon bag'ridagi «Ojizlar vodiysi»da makon topdi. Bu yerdan ketib u otasi oldida yashay boshladi. Otasi vafotidan so'ng hech yerda qo'nim topolmay, Makkai Mukarramaga yo'l oldi. U yerda 15 yil umrini o'tkazadi. O'tgan kunlari zoe ketmaydi. Misrga qaytgach sulton al-Komil unga katta izzat- ikrom ko'rsatadi. Shoir 1234 yili Kohirada vafot etadi va vasiyatiga ko'ra Muqattam tog'i etagiga jasadi dafn etiladi. Shoiridan bir kichik devon qolgan. U bir necha bor sharhlangan bo'lib, sharxlovchilar 2 guruhga blinadi. Birlari uning she'rlarini zoxiriy tomonini tushunib uni Abu Nuvo'sga o'xshatatadi. Bu shayx al-Xasan al-Buraniydir (1615y). Ikkinchilari uning so'fiy she'riyatiga to'g'ri baxo berib chuqur botiniy mazmunini ochib beradi. (Bu-Shayx

Abdulg'aniy Nablusiydir (1730). Bu ikki sharx bir kitob holiga keltirib, Rashid al-°olib tomonidan bir necha bor chop etilgan.

O'sha davr shoirlaridan yana biri- **Abu Bakr as-Sanovbariy** (334) Antakeda tug'ilgan. U Sayfud-Davla kutubxonasi qo'riqchilaridan biri edi. Sayohatni, tabiatni sevar uning go'zalligini she'rlarida tarannum etgan. Uning "ar-Ravdiyat"- "Bog'lar" nomli she'rlari to'plami mavjud.

Kushajim (970) (K-kotib, Sh-shoir, A-adib, J-avod-saxiy, M-Munajjim). Abul-Fatx Muxammad ibn Xusayn ibn Shoxiq kelib chiqishi hindlardan. U Sayfud-Davla saroyi oshpazi bo'lgan. Shoirning she'rlar devoni mavjud. U Bayrutda 1895 yili nashr qilingan. Yana «Kitab al adab an-Nadim» nomli asari mavjud. U asarlarida ko'proq tabiat manzaralarini vasf etgan.

Mix'yar ad-Daylamiy (1036/428). U Bag'dodda tug'ilgan. Sharif ar-Godiyning shogirdlaridan. Uning katta she'riy devoni mavjud. Arab she'riyati barcha janrlarida ijod qilgan. Uning g'azal, madh, vasf riso, risolalari ham mavjud.

Badiiy nasr. Bu davr badiiy nasri badiiy tasvir vositalariga boy, ko'proq qofiyali nasr yoki saj' san'atida yozilgan asarni tashkil etdi. Shu davr mashhur yozuvchilaridan Ibn al-Amid va al-Koziy al-Fozilni ko'rsatish mumkin.

Ibn al-Amid(979/360)nomi ibn bilan mashhur bo'lgan Abu- l- Fazl Muxammad ibn al- Xusayn, asli nasli fors bo'lib Qum shahrida tavallud topgan. U adabiyot muxibi bo'lgan oilada katta bo'ldi. 939 yildan Buyayxilar saroyida vazirlik mansabini egalladi. Avval amir Rukn al-Davla saroyida umrining oxrigacha xizmat qildi. Ibn al-Amid zamonasining barcha ilmlardan xabardor edi. Bu falsafa, huquqshunoslik, tabiiy fan, me'morchilik, adabiyot va b.

Uni - Ikkinchi Johiz deb ta'riflashar edi.

U badaviylarga Arastu va Iskandarni ko'rgani, Ptlomey ma'ruzalarini eshitgani, barcha o'tgan ulug' kishilar suxbatidan baxra olganligini hikoya qilib berar edi.

Ibn al-Amidning qator risolalari She'riy asarlari ham mavjud.

1.U asosan kofiyali nasrda ijod qilgan.

2.Fasoxat va balog'at ilmi badiiy tasvir vositalariga go'zallik liboslarini kiydirib berilgan.

3.Sinonimni ko'p ishlatgan. Uning o'quvchilaridan Abu Bakr al- Xorazimiyni ko'rsatish mumkin. Uning ham risolalar to'plami mavjud.

Al-Qadi al-Fodil (1134-1199). Fozil Kozi nomi bilan shuxrat topgan. Vazir Mujirad ad-din Abd ar-rahim al-Baysaniy Falastinning Asqalon shaxrida tug'ulgan. U Misrga kelib avval Fotimiy, keyin Ayubiy saroyida vazir vazifasini ado etgan.Amir Saloxiddinga u ham maslahatchi bo'lgan. Shu bois Saloxiddin- «Men davlatimni sizning shamshiringiz bilan emas,Fozil Kozi qalami bilan idora etaman» deydi.

Fozil Kozining bir she'riy devoni va risolalari to'plami bor. Bu davrda Nasriy janrlaridan - qissa, xabar, xikoya, rivoyat, latifa sira va maqomalar rivoj topdi.

«Siratu-l-Antara». «Siratu-l-Antara» - bu jamoa mehnatining samarasi. Chunki u ko'p asrlik tarixni o'z ichiga oladi.Uni 10 asrda fotimiylar amiri iltimosiga binoan Yusuf ibn Ismoil al-Misriy to'plagan.Ba'zi fikrlarga ko'ra boshlang'ich qismini 9 asrda al-Asma'iy va Abu Ubayda to'plashgan.Ammo

oxirgi varianti - ko‘rinishini XII asrda yashab ijod etgan ibn as-Sanchu to‘plagani-bizgacha yetib kelgani bo‘lsa kerak-degan fikrlar bor. Romanning xijoz versiyasi - eng keng va to‘lig‘i. Suriya va Iroq versiyalari o‘zaro oz farq qiladi.

Asarning asosiy g‘oyaviy mazmuni -bu 6-asrda yashab ijod etgan joxiliya davri shoiri Antara; uning Ablaga bo‘lgan muxabbati, Ablaga yetishish uchun ko‘rsatgan qahramonliklari, janglardagi jasorati haqidagi hikoyalardan iborat.

Bu nasriy asarda ko‘plab she‘rlarni uchratish mumkin. Saxroviiy jangchi - shoir Ablaga yetish uchun boshidan ko‘p qiyinchiliklarni o‘tkazadi.Va nihoyat uch fazilat va shon - shuxratni tan oladi.

Romanda Abla - samimiy sevgi soxibasi,shu bilan birga u mag‘rur ayol.

Romandagi Shaybu obrazi bu Antaraning sodiq birodari va maslahatchisi. U hamma vaqt yordamga tayyor.

«Siratu-l-Antara» romani juda tez shuxrat topdi.Uni sharqshunoslar tarjima qildilar!

«**Ming bir kecha**». «Ming bir kecha»da 264 ta hikoya bor. U forscha «Xazor afsonae»asosida yaratilgan degan fikr bor.Chunki u eski paxlaviy tilidan arabchaga tarjima qilingan. Keyinchalik unga Bag‘dod va Misr hayotini aks ettiruvchi qator arabiiy rivoyatlar qo‘shilgan. Ba‘zi adabiiyotshunoslar fikricha, Muxammad Abdus al Jaxshiiyoriy kitobiga arabiiy-forsiiy va yunon hikoyatlari ham kiritilgan. Ular hammasi arabiiylashtirilib, aralashib ketgan. Bizgacha yetib kelgani XXI (X) asr birinchi yarmiga taalluqlidir. U bir necha bor Sharq va ‘arbda nashr qilingan. Birinchisi, 1814 yili Kalkuttada, keyinroq Bayrutda chop etilgan. U dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan. “Ming bir kecha” Sharq va ‘arb yozuvchilari ijodiga barakali ta‘sir ko‘rsatdi.

Maqomalar. - bu qisqa latifalardir. Qadimda arablar makoma deb qabila yig‘iladigan joyni atashgan. Keyinchalik mazkur istilox jamoatyig‘iladigan joydagi suhbatlarni angatgan. Islomdan keyin xalifa va uning yaqinlari bilan bo‘ladigan suxbatlar ham maqom deb atala boshladi.

Adabiiy ilmiy to‘garaklarda olimlar, shoirlar o‘z maxoratini namoyish etganlar. X asrga kelib axli-ilm, axli adab va axli she‘r o‘rtalarida o‘tkazilgan oliy darajadagi suxbatlar ham maqom atalgan. Shu bilan birga juda nozik ta‘b bilan yozilgan hikoyachalar (latifa-novella)nomini ham makoma deb aytitila boshladi. Bu adabiiy janrga Badiu-z-Zamon al-Xamazoniyy asos soldi. Abul Fadl Ahmad ibn Husayn Badiu-z-Zamon (969-1007/358-398) nomi bilan mashhurdir. Badiu-z-Zamon maqomalari adabiiyot, til, din va tarixga oid mavzularga ega. Uning maqomalarini sayyox va savdogar Iso ibn Hishom hikoya qilib beradi. Maqomalarning qahramoni Abu-l- Fath al Iskandariy- aqlli, o‘qimishli kishi. U tarix, adabiiyot, she‘riyatni tushunadigan, mustaqil fikr yuritadigan, hayotni achchiq-chuchuklarini totigan donishmand. U xalifatning barcha shahar, viloyatlariga sayohat qiladi. Har bir maqomada har xil kishi qiyofasida namoyon bo‘ladi. Masalan: “May maqomasida” kishilarni toat-ibodatga chorlovchi imom, “Kaspiy maqomasida” u odamlarni Vizantiyaliklarga qarshi jangga chorlovchi lashkarboshi, “Maymun maqomasi”da u maymun o‘ynatuvchi, “Mosul maqomasida” u ayyor shaxs sifatida gavdalanadi.

Badiu-z-Zamon o‘z maqomalarida kishilarni yaxshilikka, ezgulikka chorlaydi, pand-nasihatlar qiladi. Muallif saj‘ san‘atida yaratgan maqomalarida badiiiy tasvir

vositalaridan mohirona foydalanadi. Uning maqomlari birinchi bor Istambulda, 1889 yili Bayrutda nashr qilingan.

Uning 400 ga yaqin makomlari bo'lib, 51 tasi bizgacha yetib kelgan

Al-Mutanabbiy (915-965)-nomi bilan mashhur bo'lgan Abu-Tayib Axmad ibn al-Xusaynning kelib chiqishi Jufiy arablarining Kaxtan qabilasi kaxlan urug'iga borib taqaladi. U Kufa shaxrining Kinda daxasida tug'ildi. Otasi Kinda daxasi axolisiga o'z tuyasida suv tashib keltirar, shu bois uning «ubdan as-sakka» («suv tashuvchi quli») nomli laqabi bor edi. Onasi erta vafot etib ketgani uchun uni buvisi tarbiyalagan edi. Ma'lumki, Kufa shahri u davrda fan-madaniyat o'chog'laridan biri edi. Yoshligidanoq aqlli, ziyrak, xotirasi kuchli, she'r yozishga bo'lgan qobiliyati, har bir ishga jiddiy yondoshishi atrofda gilarning e'tiborini tortdi. Biroq Kufada hokimiyat tepasiga qarmatlarning kelishi- ular oilasining Kufa va Damashq oraliq'idagi saxroga- Sharqiy Samauga qochishga majbur qildi. Badaviylar orasida 2 yil yurib u asl arab tilini mukammal o'rgandi. 927 yili Kufaga qaytib, bir obro'lik Kufalik Abu-l-Fad bilan tanishdi va undan qarmatlar dinini qabul qildi. 928 yili otasi bilan Bag'dodga kelib she'rlarida Muxammad Ubaydullox al-Alaviyni maqtadi, biroq tezda Bag'doddan Suriyaga qaytadi. Yosh shoir she'rlarida xayotdan nolishi, isyonkor kayfiyat, hamda mag'rurlik va kibr - xavo ufurib turardi.

933 yili shoir Latakyaga kelib bir necha shaxslar bilan aloqa o'rnatadi. So'ngra Samau saxrosiga kelib, badaviylar orasida isyonga da'vat etadi.

Bu da'vati va isyoni tufayli u 2 yilga qamaladi va Mutanabbiy degan laqabni ya'ni «u o'zini nabi deb atadi»-degan laqab, keyinchalik taxallus tusuni oladi.

Shoir o'z ijodida bir necha davrini boshidan kechiradi. 928-948 yillari Suriyada ijod qildi. Ko'proq faxr, madh va xajviya janrlarida ijrod qildi. Arab tilini mukammal bilganligi sabaabli asarlari nihoyatda murakkab majoziy iboralarga boydir. Suriyada ijod qilgan asarlari to'plamini «Shomiyot» deb nomlanadi.

948 yili shoir Xalabda-amir Sayfu-d-Davla saroyida yashab ijod qiladi. Amirni maqtashidan maqsadi biror yaxshi martaba egallash edi. Biroq bir saroy shoiri Ibn Xalaveyx bilan bo'lgan baxsda amir Mutannabiyga yon bosmaydi. Shu bois amirni tanqid qilib Misrga - amir Kofur saroyiga ravona bo'ladi. Xalabdagi 948-957 yildagi she'rlari to'plami «Sayfiyat» deb nom oladi. Misrda Kofur saroyida ishlab, biror viloyatga hokim bo'lish orzusida yashaydi. Biroq orzusi amalga oshmagach, amir Kofur ustidan kulib, zaxarxanda she'rlar bitadi-da, oxirgi yillarini Iroq va Eronda o'tkazadi.

957-962 yillardagi asarlar «Kofiriyot» deb atala boshlandi. 962-965 yillar Sherozda-Adud ad-Davla saroyida yashab ijod qildi. Bu yerdagi asarlari to'plami- «Adudiyot» nomini oldi. Shoirning o'limi fojiali. U Sherozdan Iroqqa qaytayotganda yo'lda bir vaqtlar singlisi shoir tomonidan xajv qilingan shaxs shoirdan qasos olib o'ldiradi.

Shoir Mutannabiyning falsafiy qarashlari, chuqur badiyyat bilan sug'orilgan she'riyati kelajak shoirlarga ta'siri katta bo'ldi.

Abu-l-Ala-al-Ma'rriy (973-1057). Shoir shimoliy Suriyaning Maa'rnat an-Nu'mon qishlog'ida faqih-huquqshunos oilasida tug'ildi. Uning otasi tanux qabilasidan bo'lib, tilshunos va huquqshunos olim edi. u dastlabki ta'limni uyda

otasidan oldi. Uyda olgan bilimini mustahkamlash maqsadida Xalabda, so'ng Latakiyada taxsil oladi. Antioxiyada monastirda o'qiydi. Barcha dinlar tarixi bilan qiziqadi. Keyin o'sha davr Xalifalik poytaxti - ulug' olimlar, adibi- shoirilar, yig'ilgan joy - Bag'dodga boradi. U yerda ko'pgina allomayu - zamonlar bilan uchrashib suxbatlaridan baxramand bo'ladi. Biroq onasi betobligidan xabar topgani shoir o'z ona qishlog'iga qaytadi. Onasi o'limi tufayli shoir endi bir umr shu yerdan hech yerga chiqmay o'tadi. Uni «ikki zindon ba'zan uch zindon maxbusi» deb atashgan. Ko'zining ojizligi (Abu-l-Ala 3 yoshida chechak kasaliga chalilib; ko'zi ko'rmay qolgan). Va 50 yil mobaynida o'z qishlog'idan hech yerga chiqmasdan umrining oxirigacha o'sha yerda umr guzaronlik qilgan. (1009-1057y).

Shoirning birinchi asari Bag'dodda yozilgan bo'lib, «Saqt az-zand» («Olovdan uchqun» deb ataladi). U 11 ming baytdan iboratdir. Mutanabbiyning she'rlariga sharhlar yozilgan.

Maa'arrat an-Nu'monda shoir «luzumiyot» nomli she'rlar to'plamini «Risolatu-l-g'ufan» («Kechirimlilik haqidagi risola») va boshqa ko'pgina asarlarini yaratdi.

Buyuk alloma va shoirmi yo'qlab xalifatning har chekkalaridan o'quvchilari muridlari kelishar, u bilan bo'lgan suxbatlardan baxramand blishar edi. Ba'zi ko'pgina mashhur kishilar xat orqali maslahatlar olishar edi.

Ba'zi amirlar o'z poytaxtlariga shoirmi taklif qilishar edi. Biroq Abu-l-Alodan faqat rad javobini olishgan.

Shoir «Olovdan uchqun» asari muqaddamasida yozadi. «Men hech qachon oliy martabali shaxslarga madxiyalar» yozmaganman.

Abu - l -Ala al-Maa'arriy o'z zamonasining eng o'qimishli kishisi, Islom huquqshunosligi va aqidalarining bilimdoni, buyuk faylasuf, tilshunos va tarixchi olim hamda arab she'riyati qonun - qoidalarini mukammal biluvchi edi. Shoirning quvvai xofizasida qator she'riy va ilmiy asarlar yodda saqlagan. Shoirning yetmishga yaqin she'riy va ilmiy asarlari mavjud bo'lib, undan ba'zilar bizgacha yetib kelgan. Uning «Mulk as-sabil» nomli pand-nasihatnromasi mavjud, shoirilar asarlariga sharxlari bor. 1. «Mo'jiz Axmad» («Axmad sexri») al-Mutanabbiy asarlari sharxiga bag'ishlangan. 2. «Zikra xabib» («Xabibni eslab»), Xabib Abu Tammom she'riyati sharxi. 3. Abas al - Valid - al - Buxuriy asarlari sharxiga oid asarlaridir.

Shoirning «Risolatul - maloika» («Farishtalar haqidagi risola») asari bordir.

Mazkur asarlari shoirga katta shuhrat keltirdi. Uning ijodiga baho berishda har xil fikrlar bo'lsa-da, u buyuk shoir va faylasufdir. Uning durdona asarlari arab adabiyoti rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sharif ar-Rodiy asarlarini sanab o'ting?
2. Ibn al-Farid hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Abu-l-Ala-al-Ma'rriy haqida to'liq ma'lumot bering.
2. «Risolatul - maloika» asari haqida to'liq ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi 1 tom, 150-153, 176-186-betlar.
2. Filshtinskiy I.M. Istoriya arabskoy literaturi (Y-X veka) M., 1985.
3. Kudelin. Arabo ispanskaya poeziya. M., 1974.

7-Mavzu: ARAB - ISPAN (ANDALUSIYA) ADABIYOTI (VIII-XV ASRLAR.)

REJA:

1. Arablarning Ispaniyaga kirib kelishi.
2. Arab-istan adabiyotining davrlanishi.
 - a) Taqlid davri;
 - b) Yangilanish davri.
 - c) Tanazzul davri.

Tayanch soʻzlar

- | | |
|------------------------------|----------------|
| 1. Andaluziya adabiyoti. | 6. Ibn Xamdis. |
| 2. Sharq anʼanalariga taqlid | 7. Vasf. Madh. |
| 3. “Noyob durdona asar”. | 8. Muvashshax. |
| 4. Ibn Abd Rabbixi. | 9. Zajal. |
| 5. Xalifa al Muʼtamid. | |

Arab xalifaligining maʼnaviy va madaniy markazlari faqat Sharqda boʻlmasdan, balki ular Gʻarbda ham boʻlgan. Bu arab Ispaniyasi -Andaluziyadir. Arablar 8-asrda Shimoliy Afrikani zabt etib, u yerdan 711 yili berberlar yordamida Ispaniyani ishgʻol qildilar. Pireneya yarim orolining koʻp qismi bosib olindi. Biroq ispanlar Shimolda oʻzlarining mustaqil ispan- vestgot qiroliklarini tuzadilar. 756 yilga kelib Ispaniyada mustaqil xalifalik paydo boʻladi. Uning poytaxti Qurtuba (Kordova) da boʻlib, davlat boshligʻi Umaviylarning avlodlaridan Abduraxmon I edi. Keyingi xalifalardan Abduraxmon 111 929 yili oʻzini Abbosiylardan mustaqil xalifa deb eʼlon qiladi. Lekin Ispaniyadagi bu mustaqil arab davlati X asrning ikkinchi choragiga kelib mayda qirolik(amirlik)larga boʻlinib ketdi. Andaluziyadagi har bir shaxar amirlari masjid-madrasalar qurdirib, kutubxonalar tashkil qildilar. Shu bois Kordova, Granada, Sevilya, Valensiya, Toledo, Almeriya shaxarlari katta ilmiy markazlarga aylanib, u yerga xalifatning barcha burchaklaridan, hatto Yevropadan ham tolibi ilmlar oqib kela boshladi. Arablar Ispaniyaga oʻzlari bilan nafaqat til va dinlarini, balki Sharq madaniyati va maʼnaviyati anʼanalarini ham olib keldilar. Andaluziya axolisi arab tilini oʻrgandi. Islom dinini qabul qildi. Shu bilan birga arab adabiyoti ham kirib keldi. Ispaniyadagi arab adabiyoti tarixi uch davrga boʻlinadi.

1. «Taqlid» davri (XI-X asr oxiri)
2. «Yangilanish» davri (XI-XII asr oʻrtasi)

3. «Tannazul» davri (XI-XV asrlar).

Arab munaqqidlari tomonidan «taqlid» deb nom olgan birinchi davr XI-X asrlarni o'z ichiga oladi. I davr Kordova xalifaligining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Kordovaning o'qimishli xalifalari adabiyot va uning an'anaviy shakllarining rivojiga o'zlarining barakali xissalarini qo'shdilar. Ular o'z qasidalarida o'z qabilalari jasorati, vatan sog'inchi yoki biror kishi vafotiga marsiyalar yozar edilar. Andaluziya shoirlari esa, arab shoirlariga taqlid qilishar, arab shoirlari asarlari ular uchun badiiy namuna edi. Andaluz adabiyotining ilk namunalari VIII asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Umaviy amirlaridan Abduraxmon I asarlaridan ona - Vatan sog'inchi taprannum etilgan edi.

Andaluziya adabiyoti rivojida Bag'doddan Kurtubaga kelgan fors Ziryabning (789-857) ham o'z ulushi bor. U she'rni musiqa ohanglari ostida ifodali o'qishdek sharq arab ma'daniyatini ispan tuprog'iga olib kelgan musiqashunos xofizlardan edi. Xuddi ana shu vaqtdan boshlab andaluz she'riyati musiqa bilan bog'liq xolda rivojlana boshladi. X asr Taqlid davri Kordova adabiyoti gullab - yashnagan davrdir.

Bu davrda Garbiy Yevropadagi o'qimishlilar - bu ruhoniylar edi. Odamlarning turmush sharoiti va madaniy darajasi past edi. Biroq Arab Ispaniyasi bu davrda ham iqtisodiy ham madaniy jihatdan juda rivojlangan edi. O'qimishli Kordova xalifalari - ilm, fan, san'atni rivoj topdirib keng qurilish faoliyati bilan mashg'ul edilar.

Xalif al-Hakam davrida qator madrasalar ochildi. Kardovo universiteti dovrug'i esa Ispaniyadan boshqa o'lkalarga borib yetdi. Arab manba'larida ko'rsatilishicha, xalifa kutubxonasida 400 000 qo'lyozma asar yig'ilgan edi.

Ayniqsa, Kordova buyuk xalifasi al- Mansur davridagi adabiy to'garaklar X asr andaluz adabiyoti rivojida katta ijobiy rol o'ynadi.

Ispaniyadagi arab adabiyoti uch davrga bo'linadi:

1. «Taqlid» davri.
2. «O'tish» davri.
3. «Yangilanish» davri.

«Taqlid» davri vakillaridan **Ibn Abd Rabbixi** (860-940\ 246-338), **Ibn Xaniy** (938-973\ 326-362) **Ibn Shuxayd** (992-1034\ 382-426) larni ko'rsatish mumkin.

Ibn Abd Rabbixi Abu Umar ibn Muxammad ibn Abd Rabbix 860 yili Kordovoda tug'ildi. Shu yerda taxsil oldi. U yoshligidan ilm-fan, adabiyotga muxabbat qo'ydi. Fiqh ilmi, tarixni to'liq o'rgandi, musiqa va tabobat bilan tanishdi, she'riyat va nasr san'atida kamolotga erishdi. U uch xalifa - Muxammad I, al-Munzir va Abduraxmon III davrida yashadi. Shu bois ularga qator madxiyalar yozdi. O'z asarlarida ayollarni ham madx etgan, keksaygan chog'ida Abu Nuvos singari tavba-tazarru', tarkidunyochilik ruxida ham asarlar yaratdi. O'sha qasidalarini «Mumaxxisot» («Poklangan») deb nomladi. U 940 yili shol kasalidan vafot etdi.

Ijodi: Ibn Abd Rabbixi she'riyatda ham, nasrda ham mashhur asarlar yaratdi. Uning she'riy asarlari juda ko'p bo'lib, Yoqut al-Xamaviyning yozishicha, ular 20 qismdan iborat bo'lgan. Ular xalifa al-Hakam uchun to'plangan ekan. Biroq

ularning ko'p qismi yo'qolgan.Ibn Abd Rabbixi go'zal, nasib, vaf, madx, riso, xud xikmat, tarix janrlarda ijod qilgan.

Nasriy asarlaridan eng mashhuri -bu «al-Iqd al- Farid» «Noyob durdona»asaridir. U 25 qismdan iborat bo'lib har ikki qism bir gavxar nomi ostida birlashtirilgan. U o'z ichiga ijtimoiy,siyosiy, axloqiy, adabiy va tarixiy mavzularni mujassamlashtirgan. Asarda sharq adiblari haqida so'z yuritiladi.

Ibn Abd Rabbixiga uning nasri asari -«Noyob durdona» shuxrat keltirdi.Chunki u adiblar, lug'atshunoslar, she'rshunoslar, tarixchilar uchun katta manba' vazifasini o'tadi.

«Noyob durdona» asari Sharq adiblari ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ibn Xaniy.(938-973/ h326-362). Abu - l - Qosim Muxammad ibn Xoniy al-Azdiy al-Andaluziy Sevilyada, ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan davrda «Oltin asr»da o'sib ulg'aydi. She'riy san'atda katta maxorat kasb etdi. Uning xazil - mutoyibaga moyilligi kuchli bo'lgan. O'zi xushchaqchaq, ochiq tabiatli bo'lib, asarlarida mublog'ani ko'p ishlatgan.Shu bois uni ham shaxarlari daxriylikda ayiblab, Sevileni tark etishga majbur qilgan. U Mag'ribga yo'l oladi. U yerda fotimiy xalifa al-Mansurning qo'mondoni Javxar bilan tanishadi. U shoirga katta iltifotlar ko'rsatadi. Biroq maishatga berilgan shoir yo'lda 36 yoshida o'ldiriladi. Bu 973 yil edi.

Ijodi. Ibn Xaniy devoniga kiritilgan qasidalar Kohirada, so'ngra Bayrutda chop etilgan. Asarlarining katta qismini madx tashkil qildi. Undan tashqari xajviya,marsiya va vaf janrlarida ham ijod qilgan. Shoir ko'proq al-Mutanabbiy ijodiga taqlid qilib yozgan.

Ibn Shuxayd.(992-1034)(382-426). Amir ibn Shuxayd Kordovada tug'ilib, voyaga yetdi.Uning ajoyib nozikta'b madxiyalari, rubobiy g'azallari bilan bir qatorda noyob nasriy risolasi mavjud.(«Risolat at-tavobi va z-zavobi») «Ruxlar va iblislar»nomli risolasi Abu-l-Ala al-Ma'rriyning («Risolatu-l gufran») «Kechirimlilik risolasi» mazmuniga o'xshab ketadi. Mazkur risolada muallif ruxlar olamiga sayohat kilgani,u yerdan o'tgan shoir va adiblarni uchratgani, ular bilan suxbat qurgani haqida yozadi. Ibn Shuxayd asarlari o'zining jonliligi tabiat manzaralarini ajoyib vaf etilganligi bilan ajralib turadi.

Ibn Darroj (958-1030). Abu Umar Amad ibn Muhammad ibn al-Asi ibn Ahmad ibn Sulaymon ibn Aysi ibn Darroj al - Andalusi al-Kastalliy. 958 yili aprelida (347 hijriy muxarram) sanxaj qabilasining berber oilasida tug'ildi. Bu qabila vakillari musulmonlardan birinchi bo'lib, 711 yili Ispaniyaga kirib kelgan edilar. Ibn Darroj boshqa shoir va olimlar kabi madrasalarda o'sha davr barcha ilmlaridan tahsil oladi. Ispaniyada bu davrda al Mansur hukmronlik qilardi. Shuning uchun 992 yili Kordovoga kelgan ibn Darroj al Mansur sharafiga o'zining birinchi qasidasini yozadi. Al Mansur o'z atrofiga ko'zga ko'ringan adib va shoirlarni to'plagan, ular hammasi ma'lum imtihonlardan o'tgan edilar. Imtihonlardan o'tgan shoirlargina "Shoirlar devoni"ga kiritilar, shundan keyingina ular rasmiy shoir hisoblanib, oylik maosh bilan taminlanar edilar. Ibn Darrojning birinchi chiqishidayoq uni "Shoirlar devoni"gi kiritildi, biroq uni ko'rolmaganlar ham bo'ldi. Shu bois u 992 yili 2 dekabrda obro'li majlis oldida ikkinchi imtihondan o'tdi. Bu gal u al Mansur saroyida katta qasida o'qib berdi. Unda shoir

Amiriylar sulolasiga bo'lgan o'zining samimiy sadoqati va o'z hukmronining fazilatlarini shon shuhrati uni "Imonning himoyachisi"ekani haqida to'lib, toshib gapiradi.

Ibn Darroj 16 yil davomida Amiriylar davlatining ham shoiri, ham tarixchisi sifatida har bir voqeaga o'z munosabatini bildirib turdi. Shu tufayli u butun Andaluziya bo'yicha mashhur bo'lib ketdi. Biroq al Mansurning vafoti saroy shoirlarining tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Chunki yangi xalifa otasi davridagi shoirlarni saroyda qoldirgan bo'lsa-da, shoirlar va ularning she'rlariga uncha ahamiyat bermadi. Yaxshi she'rni yomon she'rdan ajrata bilmadi. Ketma-ket xalifalarning o'zgarishi saroy shoirlari ahvolini og'irlashtirdi. Shuning uchun boshqa shoirlar kabi ibn Darroj ham Kordovadan Seutuga- Ali ibn Hammud saroyiga keladi va albatta unga bag'ishlab bir qasida yozadi.

O'zining bu Shimoliy Afrikaga qilgan safari ma'qul kelmay yana Ispaniyaga qaytadi. 1014-1018 yillar u Almeriya, Valensiya, Xativ, Targos degan shaharlarga boradi va u yerda o'z baxtini qidiradi. Biroq hech yerda qo'nim topa olmaydi. Sakkiz yillik sargardonlikdan so'ng ibn Darroj Saragosga - Tujibiylar sulolasi saroyiga keladi va bu yerda o'n yil xizmat qiladi.

U juda ko'p qasidalar yozadi va 1030 yili shu yerda vafot etadi.

Ibn Darroj ijodi to'rt davrga bo'linadi.

1. Al Mansur saroyiga kelishdan oldingi davr.

2. Amiriylar saroyidagi davr (992-1009 yy.)

3. Sargardonlik yillari. (1009-1018yy.)

4. Tujibiylar saroyidagi davr (1018-1028yy.)

Mana shu to'rt davrda eng muhimi bu Kardovoda Amiriylar saroyidagi davrdir. Bu davrda shoir 70 dan ortiq asar yaratdi. Shulardan 30 dan ortig'i al Mansurga atalgan madhiyalardir. Ibn Darroj o'z ijodida boy Sharq an'analarini davom ettirdi.

XI asr boshlarida Kordova xalifaligining tanazzulga yuz tutishi, Andaluziyada ko'pgina amirliklarning paydo bo'lishi arab - ispan adabiyoti rivojiga hech qancha to'siq bo'lolmadi.

11-Yangilanish davri (XI asr 1 yarmi-XII asr o'rtasi).

Taqlid davri ko'proq vatan sog'inchi, qadimgi arab an'analariga taqlid qilingan bo'lsa, yangilanish davrida ko'proq ona - tabiat Andaluziya tabiati vasfi o'rin egallagan. Unda Ispaniyaning sho'x daryolari, ko'llari, baland ko'm - ko'k tog'lari, yashnagan yam- yashil bog'lari, keng dengizlari, undagi kemalar, go'zal shaxarlar, masjid madrasalar, salobatli saroylar, undagi favvoralar vasfi o'rin oldi. Sharq she'riyatidagi ishq- muxabbat mavzui andaluziya poeziyasida o'z in'kosini topdi.

Mazkur davr vakillaridan arab- ispan she'riyati rivojiga o'zining barakali ulushini qo'shgan *Ibn Zayd*undir.

Ibn Zaydun (1003-1074). Kardovo taxti uchun bo'lgan siyosiy kurash qatnashchilaridan bo'lib, umaviylar sulolasi tugatilgandan so'ng, uni ham hibsga oladilar. qamoqdan qochib, Seviya hukmroni Al-Mu'tadiddan madad so'rab keladi. Bu saroyda u katta martabaga ega bo'ladi. Shoir madh, riso, g'azal janrlarida ijod kiladi. ko'proq an'anaviy janrlarga ko'l uradi. Shoirning eng yaxshi

g'azallari Xalifa al-Mustakfiyning qizi - shoira al-Valladaga bag'ishlangan. Arablar o'rtasida mashhur qasidalaridan - bu «kasida nuniyadir» unda shoir o'zining Valladaga bo'lgan samimiy muhabbatini tarannum etgan. «...Siz mendan uzoqdasiz - bizni ayirishdi. kalbim to'xtamay sizni sog'inib kuylaydi. Ko'zlarim nigoron bo'lib yig'idan to'xtamaydi...» Ibn Zaydunning ko'proq shark shoirlariga taklid kilib asarlar yozgan ko'proq al-Buxturiy asarlariga taklid kilib, undan tazminlar olgani uchun shoirni «'arb al-Buxturiysi» deb atashgan. Ibn Zaydun sharhi arab poeziyasi ta'siri ostida ona tuprog'i Ispaniya tabiati, shaharlari vasfi ham o'rin olgan.

Al- Mu'tamid ibn Abbad (1040-1095/ h 431-488). Sevilya hukmroni o'g'li al-Mu'tamid ibn Abbad katta akasi vafotidan so'ng taxtga voris bo'lib qoldi. Shu bois 1069 yili u taxtga o'tirdi. O'zi shoir va adib bo'lganligi tufayli saroyga ko'pgina ko'zga ko'ringan shoirlar, adiblar yig'ilgan edi. Al-Mu'tamid Korodovani bosib oladi. Biroq Kastiliya gersogligi monaxlaridan cho'chib, Marokash Xokimligidan yordam so'raydi. Xokimning o'zi Ispaniya yerlarini bosib olish niyatida bo'lganligi uchun, darhol bu imkoniyatdan foydalanib, Kordovani ham, Sevileni ham bosib oladi.

Al-Mu'tamidni esa, asir olib, oilasi bilan Marokash yaqinidagi qamoqxonaga keltiradi. Xalifa al-Mu'tamid o'sha yerda vafo etadi. Shoir sifatida uning qasidalari mavjud. Uning tutkunlikda yozgan asarlari kalbi tubidan chiqqan nido kabi yangraydi. Uning asarlari orasida madhiyalar uchramaydi.

Ibn Xamdis (1055-1132/ h 447-527). Abu Abd al-Jabbor ibn Abu Bakr ibn Xamdis Sisiliya orolining Sirakuzi shahrida 1055 yili tavallud topdi. Shu yerdagi madrasalarda ta'lim oldi. Biroq 1078 yili Sisiliyani butunlay tashlab Ispaniyaga - Sevilya hukmroni al-Mu'tamid ibn Abbod huzuriga yo'l oldi. Uning saroyida birmuncha vaqt xizmat qiladi. Al-Mu'tamid ta'qib ostiga olinib, shimoliy Afrikaga Agmat shahriga yuborilganda ibn Xamdis Xam uni ketidan o'sha yerga boradi. Biroq Mu'tamidning o'limidan so'ng avval al-Mahdiya shahrida so'ngra Mayorka oroliga ko'chib o'tib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashaydi. Uning Xayoti 'arb musulmon dunyosining uch qismi - Sisiliya, Andaluziya va Shimoliy Afrika bilan chambarchas bog'liqdir. Asarlarida Sisiliya musulmonlarini kofirlarga qarshi kurashga undagan bo'lsa, Ispaniyadan shoir va adib bo'lgan Xalif Mu'tamid saroyida ajayib asarlari uchun ko'p marhamat va muruvvatlarga sazovor bo'ldi. Shimoliy Afrikada bo'lsa, Xalif Mu'tamidga hamdard bo'ldi. Ibn Xamdis devoniga kirgan 6 mingdan ko'proq baytda vasf asarlarining oltidan bir qismini tashkil etadi. Ibn Xamdis she'riyatidagi tavsifiy ibora va ifodalar an'anaviy sharkona vasf mavzui bilan uyg'unlashib ketadi. Uning devonidan bog'i bo'ston dashtu dara va daryolar vasfi, dengiz va safinalar vasfi, gul vasfi, sham vasfi samoviy hodisotlar vasfi, qilich va qalkon vasfi, hayvonotlar: (ot, tuya, sher, jirafa, qurt-qumursqa) vasfi joy olgan. Ibn Xamdis ijodididagi vasf gul, dasht, daryo, yomg'ir vasflari bilan birgalikda keladi. Ibn Xamdis asarlarida samoviy hodisotlar vasfi orasida sayyoralar hayoti, samon yo'li, yetti og'ayni yoki katta va kichik ayik turkumlariga oid yulduzlar vasfi bir-biri bilan bog'liq xolda beriladi. "Xuddi qaro tun sharob ichib, mast bo'lib yonboshiga yiqilgandek bo'ldi. Xuddi tong turk qo'shinlarining qo'mondoni bo'lib, habash podshosini jangga chorladi-yu, u bekingandek bo'ldi.

Ibn Xamdis °arbda sharq an'analarini davom ettiruvchi, ularga ergashuvchi taqlid qiluvchi sifatida namoyon bo'ldi. Quyidagi baytda Xuddi ibn al-Mutazzga taqlid qiladi. " Yangi oy kumush o'roqqa o'xshab xuddi zulmat guli nargizni o'rayotganday".

Ibn Xamdis ijodidan «Badaviy» mavzu'i ham ma'lum o'rin olgan. Bunda ko'proq kilich, jang, sherlar tavsifi beriladi.

"Qilich qalbini, sen uning tanasining chiqarib yuborsang, u dushman tanasiga kirib, uning ruhini chikarib yuboradi. Jangovor qilich qiniga qamab qo'yilgan. U tanaga kirgan zahoti uning avval ruhini chiqaradi, so'ngra o'tkir tig'ini chiqaradi".

Asardagi ot vasfi, jang, jangchilarning jangdagi qahramonliklari bilan uyg'un xolda beriladi.

«U shamol kabi uchadi, uning dupiridan chiqqan bulutni ko'rmayapsanmi, uning terisi yomg'ir kabi quyilmokda, ko'zlaridan chiqqan o't yashin kabidir". Xalifa Mu'tamidga yozgan asarlarida, Sisiliya musulmonlarga murojaatida muqaddas jihod ruhi sezilib turadi. "Sen Alloh dinining oliy qo'riqchisi eding, Xuddi sen uning qalbi-yu, u uning vijdoni edi."

Ibn Xamdis asarlarida Qur'oni karim oyatlari ham berib o'tilgan. Ibn Xamdis qasidasida do'l, yomg'ir, irmoqlar vasfida Ispaniya tabiatining barkamol go'zalligi ifoda etilgan.

"Samoning yerga tushgan do'l donachalari, agar ular, yaxlab kolsa, xuddi marvaridga o'xshaydi.

Bu durdonalarni bulutlar bizga yetkazdilar, agar dengiz tubidan olsak qanchalar qiyinchiliklarga duch kelardik. Qani endi uning shodalari bilan yor bo'ynini bezasak. Biroq samo ko'z yoshlarining zamin yanoqlari bilan uchrashishi ularni eritib yubordilar. Ularning tezyurar ilonga o'xshash, ilon izi irmog'i paydo bo'ldi. Bu asarning davomida momaqaldiraq va yashin vasfi berilgan. Ibn Xamdis asarlarida masjid, madrasalar vasfi, favvora va hovuzlar vasfi, bog'u rog'lardagi kushlar vasfi tarannum etilgan. Ibn Xamdis mavzuining kengligi, chuqurligi uni olam go'zalliklarini har tomonlama qamrab olganligidan dalolat beradi. Andaluz shoirlari ham o'z ijodlari bilan sharq shoirlari an'analarini davom ettirib, arab-ispan adabiyot rivojiga o'zlarining katta ulushlarini qo'shganlar.

Nazorat uchun savollar:

- 1 Andaluziya adabiyoti nechta davrga bo'linadi?
2. Taqlid davrida qaysi shoirlar ijod qilganlar?
3. Yangilanish davri adabiyotining o'ziga xos xusuiyatlari.

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Andalusiya adabiyotidagi yangi janrlar. (Muvashshax, zajal).
2. Bu davr shoirlari ijodida vash janri.

Adabiyotlar:

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi 1 tom,150-153,176-186-betlar.
2. Filishtinskiy I.M. Istoriya arabskoy literaturi (Y-X veka) M.,1985.

8-Mavzu: TURK HUKMRONLIGI DAVRIDA ADABIYOT
(1258-1798/ hij.656-1213)

REJA:

1. Davrga umumiy xarakteristika.
2. She'riyat.
3. Nasr.
4. Fan
5. Tilshunoslik.
6. Tarix va geografiya.

Tayanch soʻzlar

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| 1. Tashbeh. | 6. "Lison al arab" |
| 2. Istiora. | 7. "Qomus al muhit" |
| 3. Tashdir va taxmis. | 8. Alfiya. |
| 4. Qasidai Burda. | 9. Ibn Arabshoh. |
| 5. Qasidai Xamziya. | |

Bu davrni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Mo'g'ullar istilosi davri - bu Bog'dodni Xulaguxon qo'lga olishidan bosqinchi Salimning Suriya va Misrni bosib olishi bilan tugaydi.

2. Usmonli turklarning bosib kelishidan boshlab (1516-1798\ 922-1213) - Napolyonning Misrga yurishi bilan tugaydi. Abbosiylar Xalifaligining inkirozga yuz tutishidan foydalangan mo'g'ul bosqinchilari Xorazm, Xuroson, Eron davlatlarini bosib olgandan so'ng to'ppa to'g'ri Bog'dodga bostirib keldi. Chingizxondan so'ng Xokimiyat uning nabirasi Xulagaxonga o'tdi. 1258 yili (656) Bog'dodni avval qamal qilib, barcha suv inshootlarini qo'lga oldi. So'ngra shaharga kirib kelib, avvalo xalifa va uning vazirlarini osishni buyurdi. Abbosiylar poytaxtida qirq kungacha o'ldirishlar, osishlar davom etdi. Necha yuz yillardan beri yig'ilgan kitob xazinalari Dajla daryosi baliqlariga yem bo'ldi. Ma'naviy va madaniy va me'moriy obidalar shavfqatsizlarcha yoqildi. Boyliklar talon-taroj qilindi. Buyuk allomalar o'ldirildi. Bir vaqtlar olamga mashhur bo'lgan «Xikmat uyi» «Bayt-ul Xikmat» xizmatida bo'lgan olimlar qilichdan o'tkazildilar. Usmoniy turklar bostirib kelishi bilan davlat tili ham, davlat idoralaridagi Xujjatlar ham turk tilida olib boriladigan bo'ldi. O'sha vaqtdagi siyosiy ahvol tufayli shoirlar o'zlarini hunarmandchilikka urdilar. Bu davr shoirlari ko'proq shaklga e'tiborni kuchaytirdilar. Tashbih istioralar chuqur mazmuni susaydi. Shuning bo'lsa kerak bu davr she'riyatining uzoq kasalidan so'ng tuzalgan kishiga o'xshatishadi. Ka'b ibn Zuhayrning «qasida burda» asariga taklid juda kuchayib, qator asarlar yaratildi. Turk hukmronligi davridagi mashhur shoirlardan biri al-Busiriy (1212-1296) Sharofiddin Muhammad ibn Saad al-Busiriy Misrda tug'ilgan. O'zi sharq viloyati

hokimi bo'lib, she'riyat bilan yoshligidan kiziqqan. Klassik she'riyat bilimdoni bo'lgan. Uning «Qasida Burda», «Qasida hamziya» kabi bir necha qasidaları mavjud. Uning asarlari chukur mazmuni bilan ajralib turadi.

Ibn al-Vardi (1289 -1348). U Maarrat an -Nu'monda tug'ilgan. U arab tili adabiyotining bilimdoni, tarix va musulmon huquqshunosligi boxabar kishi bo'lgan.

Asarlari:

1. «Tatimma al muxtasar fi axbor al bashor» («Insoniyat tarixining qisqacha davomi»).

2. «Al-Lubab fi i'rab» («I'robdagi donolik»).

3. Sharx «Alfiya»,

4. She'rlar to'plami.

5. Maqomalar.

Safi ad-din al-Xilli (1278-1349) Irokda tug'ilgan. She'rlar to'plami bor. Bir necha qasidaları bor. Uning asarlarining tili o'tkir, boy. O'z asarini barcha baxlarida yaratgan. So'z o'yini, tajnis katta o'rin olgan. Safi ad-dinning she'rlar to'plami bir necha marta Damashq va Bayrutda nashr qilingan. To'plamga shoirning bir necha katta qasida, muvashax, tashtir va taxmis shaklida yozilgan she'rlar hamda xalq qo'shiqlari kiritilgan.

U katta iste'dod sohibi edi. Uning asarlarida shoirga ma'lum bo'lgan barcha badiiy tasvir vositalari mohirona ifodasini topdi.

Proza - Nasr. Bu davr prozasi -ya'ni nasri ko'proq risola tarzida bo'lib, u ma'muriy yozishmalar va o'zaro maktublardan iborat bo'lgan. Ma'muriy yozishmalarga sultonlar, amirlar, hokimlar o'rtasida yoziladigan rasmiy maktublar kiradi. Shunday yozishmalar to'plami yaratildi. Uni «Devon al - insho» deb nomlandi. Mazkur asarning yaratilishida eng yetuk adabiyotchilar, qalamkashlar ishtirok etdilar. Bunday maktublarni yozish uchun bo'layotgan voqealarni tushunish kifoya emas, balki ularni taxlil qila bilish, ular orasidagi munosabatlarni tushunish, hamda o'z fikrlarni tushunarli tilda chiroyli qilib bayon kilib berish kerak bo'lar edi. Shuning uchun kotiblar nihoyatda keng bilimli insonlar bo'lishgan. An'anaviy shaklda yozilgan insholarni yozishda har bir kotib o'z mahoratini ustalik bilan ishga solgan. Mazkur shaklda yozilgan maktublarda, albatta «Xurmatli», «qimmatli», «oliy janoblariga» degan mazmundagi murojaatlar bo'lishi lozim edi.

Yozishmalar mua'lliflari ko'proq shaklni bezashga e'tiborni kuchaytirib, uning mazmuniga kamroq e'tibor berar edilar.

Mazkur janr mualliflari: 1. **Badriddin Muxammad al- Xalabiy «Nasimu-s -Sabo» asarini yaratdi.** 2. **Shaxobiddin Abu-l-Abbos ibn Ali al-Kalkashandiy (1355-1418)** juda ko'p asarlarni yoddan bilgan o'ta qobiliyatli inson bo'lgan. Uning «Subx al-aasho fi sinoat al-insho "Yozish san'atida ojizlar uchun tong"». Asar kirish va o'n maqoladan iborat. U Xar bir makolada adabiyot, adabiyotchilar, ularning vazifalari ularga foydali maslaxatlar, davlatlararo diplomatik yozishmalar, sulx, shartnomalar xamda ularning namunalari berilgan. Pochta aloqalari, u bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar ham berilgan. Yuqoridagilarning hammasidan kotiblar boxabar bo'lishlari shartligi aloxida ta'kidlab o'tilgan.

Uning tarix va arab qabilalarining nasl - nasbiga oid kitoblari ham mavjud. **Baxouddin al-Amiriy (1547-1622)** «al-Kashkul» asari oʻz davri ilm fanining barcha soxalari boʻyicha (adabiyot, sanʼat, tarix, falsafa, tasavvuf, tabobat, astronomiya, algebra, dogmatika va b.) maʼlumotlar bergan.

Uning yana bir «Mixlat» degan asari adabiyotga oid boʻlib makol, matal, hamda nasixatlardan iborat.

Xajji Xalifa (1609-1657) Mustafu ibn Abdullo - kotib Chalabin. Uning mashxur ensiklopedik asari bor: «Kashf az Zunun an-asami al kutub va-l-funun». Unda har xil sohalar boʻyicha 15 ming asar nomi bor. Barcha nomlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Asarning qisqacha mazmuni, sharx va muaʼllif haqida maʼlumotlar berilgan.

Tilshunoslik. Bu davrga kelib tilshunoslikka doir asar kamroq yaratildi. Yaratilganlarining koʻplari sharx, xoshiya, qisqartmalardan iborat boʻldi. Bir necha lugʼat tuzildi. Mashhur lugʼatshunoslardan biri - **Manzur** nomi bilan mashxur boʻlgan **Jamoliddin Abu-l-Fadl Muxammad ibn Mukarramdir.(1311-711).** U buyuk tilshunos olimlardan biri boʻlib, oʻzidan oldin oʻtgan tilshunos allomalarning asarlari bilan tanishib, oʻshalardan istifoda etgan xolda oʻzining «Lison al-Arab» /«Arablar tili»/ asarini yaratdi. Bu lugʼatni tuzishda muallif kuydagi asarlardan foydalangan:

- 1.Al Azxarining «Tarbiya»
- 2.Ibn Saʼidning «Muxlam» /«Anik»./
- 3.Al-Javhariyning “ Sihoh” /«Toʻgʻri»./
- 4.Ibn Duraydning «Jamxara» /«Toʻplangan»./
- 5.Ibn al-Asir «Nixoya» /«Tugallangan»./

Ibn Manzurning lugʼati arab tili boʻyicha yaratilgan mukammal asarlardandir.1882 yili u lugʼat Misrda 20 jildda nashr etilgan. Yaratilgan asarlarning yana biri **Majiddin Muxammad al-Feruzobodiyning (1329-1414)** «al-Komus al-Muxit» («Okean») asaridir. Muallif Sherozda tugʻilgan. Barcha arab mamlakatlariga sayoxat kilib, koʻp buyuk allomalar bilan suxbatlar qilgan. Uning asari shunchalar mashhur boʻlib ketganidan lugʼatni «qomus» deb atala boshlandi.

Tilshunos va grammatik olimlardan yana biri **Jaloliddin Abduraxmon as-Suyyutidir(1445-1505).** qomusiy bilimlarga ega boʻlgan bu allomaning 350 ka yaqin asarlari boʻlgan. Uning «al-Ashbox va -n-nazoir» (“Oʻxshatish va namunalar”) degan arab tili grammatikasiga oid asari bor. Uning arab tili, uning falsafasi, xususiyatlari va somiy tillari bilan boʻlgan aloqalari haqida maxsus asarlari ham mavjuddir.

Geografik va tarix. Mashhur tarixchi olimlarning biri **Axmad ibn Xallikondir** (1211-1282) Irbil shaxrida tugʻildi va oʻsha yerda oʻqidi. Soʻngra Xalab va Damashq allomalarining dars oldi. U «Mashhur kishilar vafoti» nomli asari oʻz zamonasining olimlari, adiblari, xaliflari, hokimlari, amirlari va mashhur kishilarning tarjima xolidan iboratdir. Uning hayotidagi ajoyib voqealar aks ettirilgan bu asarda muallif har bir sanani aniq, ravshan, berishga harakat qilgan.

Zakariya ibn Muxammad al-Kazviniy(1208-1283) Kazvinda tugʻilgan. Avval Suriyada soʻngra Iroqning al-Vasit shahrida qozi kalon boʻlib xizmat qilgan. U tarix va geografiyaga oid asarlar yozgan. Shulardan biri «Ajoyib al maxluqot va

g'aroyib al- mavjudot»dir. Bu asar ikki qismga bo'linadi. Birinchi qism osmon sayyorolari, yulduzlari, jismlarning harakati ularning o'zgarishi bilan bog'liqligi haqidadir. Ikkinchi qismda muallif yer kurrasidagi o'zgarishlar-xavoda, dengizda zaminda o'simliklar va xayvonot dunyosida bo'ladigan o'zgarishlar haqida yozadi.

Qazviniyning yana bir asari «*Asor al-bilad va axbor al-ibad*». / "*Shaharlarning osori atiqalari va bandalari tarixi*" haqida/..

Ibn Arabshox (1450)- Damashqda tug'ilgan. Temur u yerni zabt etgandan so'ng u Samarqandda yashadi. Amir Temur harbiy yurishlarida hamroh bo'ladi. Uning «Ajoyib al-maqdur fi navoib Temur» "Temur sarguzashtlarida taqdir ajoyibotlari" asarida Temur shaxsiyati, uning harbiy yurishlari bosib olgan yurtlaridagi axvolot va temuriylar davridagi Samarqand hakida mukammal ma'lumotlar beradi. Asarda musajja shaklida yozilgan. Undan tashkari yana «*Mir'at li xayyati al-Muluk*» / "*Malik hayoti oynasi*" / asari ham mavjuddur.

Nazorat uchun savolllar:

1. Usmonli turk adabiyotiga umumiy xarakteristika.
2. Al Busiriy va al Vardiy ijodi.

Mustaqil ish uchun savollar:

1. Nasrning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qomusiy olimlar hakida ma'lumot bering

Adabiyotlar

1. Xanna al-Faxuriy. Istoriya arabskoy literaturi II tom,
2. Filshtinskiy I.M. Arabskaya klassicheskaya literatura. M-1965.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Xanna al-Faxuriy “Istoriya arabskoy literaturi”. M., II L.Yu, 1959 g.,1 t.
 2. Filshtinskiy I.M. Arabskaya literatura v Srednie veka. M.,1977 g.
 3. Obrazsi doislamskoy poezii arabov. T,1992, Izd. TashGIV.
 4. Xadis ilmining peshvolari. “NUR”, T-1992.
 5. Sh. Boboxonov. Velikie muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami. T-1998.
 6. Kudelin. Arabo ispanskaya poeziya. M., 1974.
-